

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.08.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

SAIDOVA RAYHONOV ABDUG‘ANIYEVNA

**BADIIY MATNNING STRUKTUR-SEMANTIK XUSUSIYATLARI
(Abdulla Qahhor nasri misolida)**

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

**Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2026

Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора филологических наук (DSc)

Content of Dissertation Abstract of Doctor of Philological Sciences (DSc)

Saidova Rayhonoy Abdug‘aniyevna Badiiy matnning struktur-semantik xususiyatlari (Abdulla Qahhor nasri misolida).....	3
Саидова Райхоной Абдуганиевна Структурно-семантические особенности художественного текста (на примере прозы Абдуллы Каххара).....	33
Saidova Rayhonoy Abduganievna Structural and semantic features of the literary text (on the example of Abdulla Qahhor’s prose).....	65
E’lon qilingan ishlar ro‘uxati Список опубликованных работ List of published works.....	71

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.08.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

SAIDOVA RAYHONOV ABDUG‘ANIYEVNA

**BADIIY MATNNING STRUKTUR-SEMANTIK XUSUSIYATLARI
(Abdulla Qahhor nasri misolida)**

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

**Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2026

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.DSc/Fil632 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy Kengashning veb-sahifasi (buxdu.uz) va «ZiyoNET» Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:	Murodov G'ayrat Nekovich filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Rasmiy opponentlar:	Bekova Nazora Jo'rayevna filologiya fanlari doktori (DSc), professor Yoqubov Islomjon Axmedjanovich filologiya fanlari doktori (DSc), professor Xolmurodov Abdulhamid filologiya fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.Fil.08.07 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil «12» *may* soat *10* da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko'chasi, 11. Tel.: (+99865) 221-29-14, 221-27-07, e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz.)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (*815* raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100118, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko'chasi, 11. Tel.: (+99865) 221-29-14, 221-27-07)

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil «*29*» *aprel* kuni tarqatildi.
(2026-yil «*29*» *aprel* da *12* -raqamli reyestr bayonnomasi).



B.E. Kili chev

[Signature]
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Sh.G'. Davronova

[Signature]
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Z.Q. Amonova

[Signature]
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi
Ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc),
dotsent

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida badiiy matni yangicha ta'limot, zamonaviy usullar asosida tadqiq etish bo'yicha muhim ilmiy-nazariy ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, matn strukturasi, undagi belgilarning o'ziga xos xususiyatlari, ularning o'zaro munosabatlarini struktur-semiotik jihatdan o'rganishga e'tibor sezilarli darajada oshayotganini kuzatish mumkin. Semiotikaning asosiy obyektini hisoblangan matndagi belgilar tizimini zamonaviy tafakkur yutuqlari asosida o'rganish dolzarb ahamiyatga ega.

Dunyo adabiyotshunosligida badiiy asar va badiiy matn orasidagi o'zgachaliklarni farqlash, muallif shaxsiga yangi ilmiy dunyoqarash asosida yondashish, matnlar orasidagi aloqa-munosabatlarning asos hamda omillarini kashf etishga intilish, shu tarzda zamonaviy filologiya uchun dolzarb sanalgan muammolarni oydinlashtirish bo'yicha ilmiy izlanishlar sifat o'zgarishlarining sodir bo'layotgani va ilmiy-poetik ongning yangi darajalarni egallash uchun sa'y-harakatlar kuchayayotganligini yaqqol ko'rsatayotganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda Mustaqillik yillariga kelib, o'zbek adabiyotshunosligida sifat jihatidan yangi bosqich vujudga kelib, asrlar davomida shakllangan badiiy ijod namunalarini zamonaviy ilmiy-estetik talqinlar asosida asrlar davomida yaratilgan badiiy ijodning barkamol namunalarini yana-da teranroq tarzda o'rganish, ularning badiiy qurilmasida hanuzgacha kashf etilmagan konnotativ jihatlarni yoritish bo'yicha muayyan ishlar amalga oshirildi. Mana shunday izlanish va yutuqlarni e'tirof etgan holda adabiyot ilmida iste'dodli qalam sohiblari tomonidan yaratilgan va xalqimizning ma'naviy-adabiy mulkiga aylangan badiiyat durdonalarini ilg'or estetik nazariy tafakkur asosida o'rganish filolog-tadqiqotchilarning dolzarb vazifalari qatoriga kiradi. "O'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o'rganish va targ'ib qilish, ko'p qirrali bu mavzuni bugungi kunda dunyo adabiy makonida yuz berayotgan eng muhim jarayonlar bilan uzviy bog'liq holda tahlil etib, zarur ilmiy-amaliy xulosalar chiqarish, kelgusi vazifalarimizni belgilab olish, o'ylaymanki, katta ahamiyatga ega".¹ Shu nuqtayi nazardan O'zbekiston xalq yozuvchisi, milliy hikoya janrini yuqori bosqichiga ko'tarib, iste'dodi va ijodi jahon doirasida tan olingan Abdulla Qahhor epik ijodiyotini struktur-semiotik nuqtayi nazardan tahlil etish zaruriyati mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030 strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271-son "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida", 2017-yil 18-apreldagi PQ-28-29-son "Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy bog'i hududida Adiblar xiyobonini barpo etish to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 16-fevraldagi 124-F-son "O'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o'rganish va targ'ib qilishning dolzarb masalalari" mavzusidagi xalqaro konferensiyani o'tkazish to'g'risida"gi Farmoyishi hamda sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda ko'rsatilgan vazifalarni bajarishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

¹ Mirziyoyev Sh. "Adabiyot, san'at va madaniyat yashasa, millat va xalq, butun insoniyat bezavol yashaydi".
[//https://xabar.uz/uz/madaniyat/shavkat-mirziyoyev-adabiyot-san'at](https://xabar.uz/uz/madaniyat/shavkat-mirziyoyev-adabiyot-san'at).

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining II. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tuzishini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi².

Badiiy matnning struktur-semiotik o‘rganish muammolari, xususan, birinchi (til) va ikkinchi (so‘z san’ati) semasiologik tizim hamda ularning uyg‘un va tafovutli tomonlari, belgi strukturasi, belgilararo munosabat, matnning lingvistik va semiotik xususiyatlari, matn va muallif, poetik tizimning diskursiv jihatlari, intermatnlik va uning shakllari, binar oppozitsiya va dekonstruksiya bo‘yicha jahonning nufuzli ilmiy-tadqiqot markazlari, oliy ta’lim muassasalari, xususan, Jeneva lingvistik markazi (Shveysariya), Parij lingvistik jamiyati, Parij semiotik markazi Oliy normal maktab, Sorbonna universiteti (Fransiya), Praga lingvistik markazi (Chexiya), Amerika semiotika markazi (AQSh), Moskva struktur-semiotik markazi, Rossiya davlat gumanitar universiteti (Rossiya), Tartu struktur-semiotik markazi (Estoniya), Polyak semiotik markazi (Polsha), Leypsig universiteti, Rur universiteti (Germaniya), Vena universiteti (Avstriya), Garvard universiteti, Kembrij universiteti, Nyu-York universiteti, Jons Xopkins universiteti, Chikago universiteti, Yel universiteti, Kaliforniya universiteti (AQSh), Bolonya universiteti (Italiya), Jeneva universiteti (Shveysariya), Leypsig universiteti (Germaniya), Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, Respublika milliy universiteti, Buxoro davlat universiteti (O‘zbekiston)da ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy izlanishlar olib borilmoqda.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘tgan asr davomida rivojlangan g‘arb mamlakatlari va Rossiyada strukturalizm va semiotika bo‘yicha ko‘pgina nazariy ishlar yaratilgan. K. Levi-Stross³, R.Bart⁴, Jan Mari Ozia⁵, J. Lakan⁶, M.Baxtin⁷, Algirdas-J. Greymas⁸, Jak Derrida⁹, Yu.M.Lotman¹⁰ tomonidan yaratilgan tadqiqotlar shular jumlasiga kiradi.

²Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi https://switzerlangues.ch/en/gad_source=1&gad_campaignid=8003024869&gbraid; https://www.krugosvet.ru/enc/gumanitarnye_nauki/ling_vistika/semioticheskie_shkoli_i_napravleniya.htm https://cyberleninka.ru/article/n/a-f-losev-i-tartuskaya-semio_ticheskaya-shkola-opyt-teoreticheskogo-dialoga; <https://www.google.com/searchq=Paris+Semiotic+Center&oq=Paris+Semiotic+Center&aqs=chrome..69i57j33i160.1687j0j15&sourceid=chrome&ie=UTF-8>; <https://psl.eu/en/ecole-normale-superieure-psl> <https://linguistic-society.com/event/linguistics-2025-paris/>; <https://www.livelib.ru/author/8899-klod-levistross> <https://www.sorbonne-universite.fr/en/university/governance-and-organization/faculties/faculty-health-sciences>; <https://ojs.utlib.ee/index.php/sss/article/view/SSS.1999.27.03>; <https://anthropology.fas.harvard.edu/class/anthro-2705-semiotic-anthropology>; <https://www.training.cam.ac.uk/jsss/course/ssrmp-sem-cul-2324> va boshqa manbalar negizida amalga oshirildi.

³Клод Леви-Стросс. Структурная антропология. – Москва: Эксмо-пресс, 2001. – 266 с.

⁴Барт Р. Избранные работы. Семиотика. Поэтика. – Москва, Прогресс, 1989.

⁵Jean-Mari Osias, Clefs pour le structuralisme, Seghers, 1957. манба:<https://studfile.net/preview/3602311/page:18>.

⁶Лакан Ж. [Функция и поле речи и языка в психоанализе](#). – М: Гнозис, 1995; Лакан Ж. [Инстанция буквы в бессознательном или судьба разума после Фрейда](#). – М: Русское феноменологическое общество/Логос, 1997; Лакан Ж. Семинары. Книга 1: Работы Фрейда по технике психоанализа (1953/54). – М.: Гнозис/Логос, 1998; Лакан Ж. Семинары. Книга 2: «Я» в теории Фрейда и в технике психоанализа (1954/55). – М.: Гнозис/Логос, 1999; Лакан Ж. Семинары. Книга 5: Образования бессознательного (1957/58). – М.: Гнозис/Логос, 2002; Лакан Ж. Семинары. Книга 7: Этика психоанализа (1959/60). – М.: Гнозис/Логос, 2006; Лакан Ж. Семинары. Книга 11: Четыре основные понятия психоанализа (1964). – М.: Гнозис/Логос, 2004; Лакан Ж. [Семинары. Книга 17: Изнанка психоанализа \(1969/70\)](#). – М.: Гнозис/Логос, 2008.

⁷Бахтин М. Избранные работы. – Москва: Художественная литература, 1986.

⁸Альгирдас-Ж. Греймас. Структурная семантика. Перевод с французского Л. Зиминой. – Москва: Академический проект, 2004.

⁹Жак Деррида. Перевод с французского, вступительная статья и комментарии Н.С. Автономовой. М.: Ad Marginem, 2000.

¹⁰Лотман Ю. Структура художественного текста. – Москва: Искусство, 1970; Лотман Ю. Анализ поэтического текста. Москва, 1972.

Akademik M.B. Xrapchenko garchi semiotika usullaridan o‘z ishlarida foydalanmagan bo‘lsa-da, uning “Художественное творчество, действительность, человек” (“Badiiy ijod, voqelik, inson”) kitobiga kirgan “Семиотика и художественное творчество” (“Semiotika va badiiy ijod”), “Природа эстетического знака” (“Estetik belgi tabiati”) tadqiqotlari belgi nazariyasi haqida xorijlik olimlar ishlari talqiniga bag‘ishlangan.¹¹

Rossiyada chop etilgan “Strukturalizm: “tarafdor” va “qarshi” maqolalar” majmuasida G‘arb, shu jumladan, sobiq ittifoq olimlarining strukturalizm va semiotikaga oid ishlari jamlangan.¹² XXI asrning boshlarida mazkur mamlakat hududidagi ilmiy muassasalarda badiiy matn, uning strukturaviy mohiyati, belgi konsepti, matn modeli, semiotik-sinergetik interpretatsiya, intermatn diskurs va uning turlari, intermatnlik va interdiskurslik, metaforik modellashtirish, ikkinchi semiozis singari muammolar xususida fikr yuritilgan tadqiqotlar yaratilgan.¹³

Internetning vikipediya, vikislovar va boshqa saytlarida semiotikaga oid atamalarning izohlari, bu sohaga oid kitob va ilmiy-nazariy tadqiqotlar matnlari mutaxassis va mazkur sohaga qiziquvchilar e‘tiboriga havola etilgan.¹⁴

Mustaqillik yillarida o‘zbek olimlarining birinchi navbatda e‘tiborini tortgan soha strukturalizm bo‘ldi. Bu davrda turli nashrlarda strukturalizmga oid bir qancha maqolalar e‘lon qilindi. Adabiyotshunoslardan M. Xolbekov, A. Rasulov, Q. Yo‘ldoshev, S. Meliev, B. Karimov, I.Yoqubov singari olimlarning ishlarida strukturalizmning fan sohasi sifatida o‘ziga xos xususiyatlari, yutuq va kamchiliklari xususida ayrim fikr-mulohazalar aytilgan.¹⁵ D.Quronovning “Cho‘lpon nasri poetikasi” kitobi, S. Melining “Asrga tatigulik kun”: roman badiiy strukturasi ayrim xossalari”, G‘. Murodovning “Yulduzli tunlar” romanida badiiy kodlar”, N. Alievaning “O‘tkan kunlar”da psixologik holatlar” maqolalarida strukturalizm

¹¹Xrapchenko M.B. Художественное творчество, действительность, человек. Собрание сочинений в четырех томах. том четвертый. – Москва: Художественная литература, 1982.

¹²Структурализм: “за” и “против”. Сборник статей. – Москва: Прогресс, 1975.

¹³Зинурова Е. С. Интертекстуальность в российской поэзии рубежа XX–XXI веков. дисс... канд. филол. наук. – Москва, 2019. – 225 с.; Кухтина Н.И. Семантика и типология сновидений в творчестве Л.Н. Толстого. дисс... канд. филол. наук. – Москва, 2020. – 144 с.; Мещерякова О.А. Семантика перцепции в аспекте художественной когниции И.А. Бунина. Автореф. дисс... д-ра филол. наук. – Елец, 2011. – 44 с.; Минц Б. А. Структура и поэтика лирических единств в поэзии О. Мандельштама. дисс... д-ра филол. наук. – Москва, 2019. – 495 с.; Мясотин. Е.В. Рок-музыка. Опыт структурно-антропологического подхода. Автореф. дисс... канд. искусствоведения. – Саратов, 2006. – 22 с.; Олизко Н.С. Семиотико-синергетическая интерпретация особенностей реализации категорий интертекстуальности и интердискурсивности в постмодернистском художественном дискурсе. Автореф. дисс... д-ра филол. наук. – Челябинск, 2009. – 46 с.; Пыхтина, Ю. Г. Функционально-семантическая типология пространственных образов и моделей в русской литературе XIX - нач. XXI вв. Автореф. дисс... д-ра филол. наук. Москва, 2014. – 30 с.; Садченко В.Т. Вторичной семииос в художественном тексте. Автореф. дисс... д-ра филол. наук. – Владивосток, 2009. – 43 с.; Чебыкина, Е.Е. Русская рок-поэзия: прагматический, концептуальный и формо-содержательный аспекты. Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Екатеринбург, 2007. – 23 с.; Шинкаренкова, М.Б. Метафорическое моделирование художественного мира в дискурсе русской рок-поэзии. Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Екатеринбург, 2005. – 24 с.; Чернявская В.Е. Интертекстуальность как текстообразующая категория в научной коммуникации. Автореф. дисс... д-ра филол. наук. – Москва, 2000. – 49 с.

¹⁴<https://ru.wikipedia.org/wiki/Структурализм>; <https://ru.wiktionary.org/wiki/Структурализм>; https://studopedia.ru/4_66709_tema-strukturalizm.html; Jean-Mari Osias. Clefs pour le structuralisme, Seghers, 1957. <https://studfile.net/preview/3602311/page:18/>; Семиотика. <https://yandex.uz/search/?lr=10335&clid=2256155-931&>; Семиотика – наука о знаках и знаковых системах. <https://4brain.ru/blog/semiotics/>; Семиотика Большая российская энциклопедия). <https://bigenc.ru/linguistics/text/3547672>; Семиотика. Что это? <https://www.uznay chto takoe.ru/semiotika/>; Семиотический методологический подход. <https://studme.org/107379/zhurnalistika/semioticheskiy-metodologicheskiy-podhod>; Структурно-семиотический подход. <https://cyberleninka.ru/article/n/strukturno-semioticheskiy-podhod-kak-aspekt-metodologii-gumanitarnogo-znaniya>; Семиотический подход в изучении культуры. <https://yandex.uz/search/>; Сущность семиотического подхода. <https://mylektsii.su/5-138954.html>; Семиотическое понимание культуры. https://studref.com/438180/kulturologiya/semioticheskoe-ponimanie_kultury_suschnost-semioticheskogo-podhoda.

¹⁵Расулов А. Структура ва структурализм. – Манба: Расулов А. Бадийлик – безавол мезон. – Тошкент: “Шарк” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош мухаррияти, 2007; Йўлдошев Қ. Бадий тахлил асослари. – УрДУ, 2008 (хаммуаллифликда); Холбеков М. Структур адабиётшунослик (рисола). – Тошкент: Фан, 2014 – 136 б.; Ёқубов И. Структурал поэтика имкониятлари // Ўзбек тили ва адабиёти, 2006, 3-сон. – Б. 3-12; Холбеков М. Ролан Барт ва структур адабиётшунослик // “Ўзбек тили ва адабиёти”, 2013, 2-сон; Мелиев С. Структурализм ва структурал тахлил ҳақида. // “Ўзбек тили ва адабиёти”, 2008, 2-сон; Қахрамонов Қ. Адабий танқидда структур метод талқини. // “Ўзбек тили ва адабиёти”, 2009, 5-сон; Карим Б. Структурал метод. – Манба: Карим Б. Рухият алифбоси. – Тошкент: Ғафур Ғулум номидаги нашриёт-матбаа уйи, 2016; Саидова Р., Муродов Ф. Бадий матнда белги муносабатлари. – Тошкент: Наврўз, 2019.

va semiotikaga tegishli tahlil usullari istifoda etilgan.¹⁶ 2021-yilda ushbu ish muallifi tomonidan semiotikada belgi munosabatlari muammosining tahliliga bag'ishlangan dissertatsiya himoya qilingan.¹⁷ Bu o'rinda aytish kerakki, o'zbek adabiyotshunosligida semiotik tadqiqotlar yo'nalishi ayrim ishlarni istisno qilganda mavjud emas. Ushbu ishimiz mana shunday kemtiklikni ma'lum darajada bartaraf etish maqsadida yaratildi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya ishi Buxoro davlat universiteti o'zbek tili va adabiyoti kafedrasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar dasturi doirasida bajarildi.

Tadqiqotning maqsadi belgi nazariyasi asosida badiiy matn strukturasi xos yetakchi xususiyatlarni aniqlash, undagi birliklarning poetik-funksional jihatlarini oydinlashtirish va matnlararo aloqa-bog'lanishlar mexanizmini tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari. Dissertatsiya maqsadini amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni bajarish nazarda tutilgan:

jahon adabiyotshunoslarining badiiy matn haqidagi izlanishlari mahsuli bo'lgan tadqiqotlarni tavsiflash jarayonida ushbu muammo o'rganilgan ishlarning yutuq va kamchiliklarni aniqlash, ilmiy-tanqidiy yondashuv orqali ulardagi zamonaviy nuqtayi nazarlarni milliy (o'zbek) adabiyoti namunalari (Abdulla Qahhor ijodi)ga tatbiq etish;

badiiy matnning yetakchi jihatlarini (belgi xususiyatiga egaligi, strukturaviyligi)ni milliy so'z san'ati namunasi "Bemor" hikoyasi)ning semiotik tahlili jarayonida ko'rsatib-dalillab berish;

Hikoya matni tahlili davomida matniy qatlamlarda paradigmatic, sintagmatic munosabatlar, shuningdek, fonologik, grammatik va semantik darajalarni aniqlash va shu asosda matn strukturaviyligini isbotlab ko'rsatish;

badiiy matnning asosiy xususiyatlaridan biri cheksizlik, ya'ni belgilarning doimiy harakati ekanligini "Dahshat" hikoyasi" matni tadqiqi jarayonida oydinlashtirish;

badiiy matnda shamol hamda go'riston belgi sifatida voqea halqalarini ulovchi, syujet strukturasi yuzaga keltiruvchi vosita vazifasini bajarishini semiotik tahlil paytida aniqlashtirish va shamol hamda go'riston belgisining alohida badiiy-funksional o'rini ko'rsatish;

tarixiy xronotop aks etgan matn ("O'g'ri" hikoyasi) strukturasi **kampir** lug'aviy birligining denotat va konnotatsiya sifatidagi vazifa va xususiyatlarini yoritish va shu asosda konseptning matniy qurilmadagi o'rni va ahamiyatini isbotlash;

akratic (shaxsiy), ya'ni shaxs (badiiy matn tarkibidagi qahramon, roviy, personaj)ga aloqador diskursda istifoda etilgan belgining matniy-funksional o'rni, mohiyatini matn tahlili davomida ochib berish;

ijtimoiy-siyosiy munosabat va dunyoqarashlarni aks ettiruvchi enkratic diskursning matn taraqqiyoti badiiy strukturasi shakllantirishdagi o'rini aniqlash;

yozuvchi ijodi – milliy adabiyot – jahon so'z san'ati doirasidagi adabiy-badiiy bog'lanishlar mexanizmini tadqiq etish orqali intermatnlik hodisasining semiotik mohiyatini aniqlashtirish;

¹⁶Куронов Д. Чўлпон насри поэтикаси. – Тошкент, "Шарк" 2004; С. Мели. "Асрга татиғулик кун": роман бадий структурасининг айрим хоссалари. // "Ўзбек тили ва адабиёти", 2010, 2-сон.; Муродов Ф. "Юлдузли тунлар" романида бадий кодлар // БухДУ илмий ахборотлари.– Бухоро, 2000. – 1-сон; Алиева Н. "Ўткан кунлар"да психологик ҳолатлар. – "Ўзбек тили ва адабиёти", 2011, 1-сон.

¹⁷Саидова Р.А. Бадий матнда белги муносабатлари. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Бухоро, 2021.

belgilar orasidagi zid munosabatlarni ifodalashda binar oppozitsiyaning dekonstruktiv ahamiyatini “Muhabbat” qissasi tahlili davomida aniqlashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O‘zbekiston xalq yozuvchisi Abdulla Qahhorning “Bemor”, “Dahshat”, “O‘g‘ri” hikoyalari, “Muhabbat” qissasi, “Sarob” romani, shuningdek, intermatn muammosining qiyosiy tadqiqi uchun Alisher Navoiyning “Layli va Majnun”, A. Qodiriyning “O‘tkan kunlar”, A.P. Chexovning “Chinovnikning o‘limi”, Jek Londonning “Martin Iden” asarlari matni tanlab olingan.

Tadqiqot predmetini badiiy matn va uning xususiyatlari – harakat, strukturaviylik, diskursivlik, intermatnlik, binar oppozitsiyaning o‘ziga xosliklari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiyada struktural-semiotik, qiyosiy, germeneytik, psixoanalitik usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

so‘z san‘atkori Abdulla Qahhorning epik ijodi namunalari (“Dahshat”, “Bemor”, “O‘g‘ri” hikoyalari, “Muhabbat” qissasi, “Sarob” romani) o‘zbek adabiyotshunosligida birinchi marta monografik tarzda struktur-semiotik tafakkur asosida o‘rganilgan, ularning badiiy matn sifatidagi belgi-alomatlari asoslangan;

“Bemor” hikoyasining tahlili jarayonida badiiy matnga xos belgi tizimi, strukturaviylik, harakat (belgilarning o‘zaro aloqa-tutashuvlari) singari yetakchi xususiyatlar ko‘rsatilgan, jumladan, matn sarlavhasi, epigraf (“Osmon yiroq, yer qattiq”), qahramon va personajlar nomi (Sotiboldi, Abdug‘aniboy) kabilarning matn strukturasidagi o‘rni hamda badiiy-funksional ahamiyati ochib berilgan, matn tarkibida paradigmatic (Bemor – Osmon yiroq, yer qattiq – Sotiboldining xotini og‘rib qoldi – Bemorning ko‘zi tinib boshi aylanadigan bo‘lib qoldi – Bir kechasi bemor juda azob tortdi – Kampir bemorning to‘zigan sochlarini tuzatdi, u yoq-buyog‘ini siladi... so‘ngra o‘tirib yig‘ladi – Bemor kundan kun battar, oxiri o‘sal bo‘ldi – Bemor ...yana ko‘zini yumdi, shu yumganicha qaytib ochmadi – saharga borib uzildi konseptlari orasidagi yaqinlik), sintagmatik (bemor – Osmon yiroq yer qattiq – pashsha g‘ing‘illaydi – Sotiboldi to‘qigan savatchalarini ulgurji oladigan baqqoldan yigirma tanga qarz ko‘tardi birliklari orasidagi qo‘shnichilik) munosabatlar, shuningdek, fonologik, grammatik va semantik darajalar o‘rganilib, ularning matniy yaxlitlikni yuzaga keltirishdagi o‘rni aniqlangan;

“Dahshat” hikoyasi semiotik usullar asosida tadqiq etilib, unda shamol va go‘riston belgilari konseptiga xos badiiy g‘oyalar mohiyati, ularning matn poetik konsepsiyasini yuzaga chiqarishdagi ahamiyati aniqlangan, xususan, badiiy matn tarkibida shamol lug‘aviy birligining 11, go‘riston leksemasining 18 marta qo‘llanilgani aniqlangan, ular ifodalagan konseptlar dahshat mohiyatini aniqlashtirishga xizmat qilgani tahlillar davomida isbotlanib, shu tarzda badiiy matn pafosini yuzaga chiqarishdagi ustuvor belgilarning o‘rni ochib berilgan;

atoqli semiotik olim Rolan Bartning semiotika ta‘limotidagi belgi qurilmasida yagona konseptning ikki va undan ortiq bildiruvchilari bo‘lishi haqidagi nazariy nuqtayi nazari tadqiq uchun tanlab olingan matnlar (masalan, “Bemor” hikoyasi epigrafi (“Osmon yiroq, yer qattiq” sintaktik birligida ikkita bildiruvchi mavjud bo‘lib, ular o‘zaro birlashgan holda bitta konsept – hikoya qahramonining ilojsizligi, mavjud davlat tuzumining xalq hayotiga loqaydligini anglatuvchi bilinuvchini yuzaga keltirgan)ni o‘rganish jarayonida amaliy jihatdan asoslangan;

“Sarob” romani matnida badiiy tajassum etilgan akkrativ (roman qahramoni Rahimjon Saidiyning buyuk yozuvchi bo‘lish va Munisxon sevgisiga erishish haqidagi xayollari, shaxsiy hayotga oid muloqotlari) va enkratik (asar qahramonlari orasidagi sovet ta’lim siyosatining sinfiy mohiyati, savdo sohasidagi qing‘irliklar, davlat qurilmasidagi nohaqlik va adolatsizliklar xususidagi suhbatlar) diskurslarning tasvirlangan zamon voqeligini in’ikos ettirishdagi o‘rni va ahamiyati ko‘rsatilgan; roviy va adresat muloqoti va personajlarning o‘zaro kommunikativ munosabatining diskursiv mohiyati, bir paradigmatic silsilani tashkil etgan belgilarni voqe etgan diskurslar o‘zaro birlashib, alohida diskursiv qurilmani yuzaga keltirishi tizimli tahlil davomida isbotlangan;

“Sarob” romani matnlar orasidagi aloqa-bog‘lanishlarning yuzaga kelish jarayonidagi intermatnlik muammosi yozuvchi ijodi – milliy adabiyot – jahon so‘z san’ati doirasida adabiy-badiiy bog‘lanishlar bo‘yicha tadqiq etilib, uning tahrir, tarjima, iqtibos, an’ana va barqaror qurilmalar, paralog, allyuziya, reminissensiya turlari mazkur matn asosida ko‘rib chiqilgan va ijodiy konsepsiya, badiiy mahorat nuqtayi nazaridan o‘rganilgan, binar oppozitsiyaning “Muhabbat” qissasi matnidani aniqlangan yetti shakli tadqiqidan kelib chiqib, bunday munosabatning matn badiiy strukturasi alohida o‘rni xulosalar orqali dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari.

Yozuvchi Abdulla Qahhor ijodining ayrim namunalari struktur-semiotik usullar vositasida o‘rganilgan;

badiiy matn strukturasi shakllantirishda belgilar orasidagi harakat-alloqalarning o‘rni ochib berilgan;

akkrativ va enkratik diskursning matn badiiy-g‘oyaviy konsepsiyasini oydinlashtirishdagi ahamiyati “Sarob” romani tadqiqi jarayonida ko‘rsatilgan;

jahon va o‘zbek adiblari ijodi orasidagi intermatnlik belgilararo munosabat-tutashuvlar jarayonida yuzaga kelishi matniy tadqiq jarayonida oydinlashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo‘yilishi, zamonaviy o‘zbek nasrida yaratilgan mukammal badiiy matn namunalariga asoslangani hamda semiotik, struktural, germeneytik usullar istifoda etilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiya natijalaridan:

Adabiyot nazariyasi, o‘zbek adabiyoti tarixi va adabiy jarayon, jahon so‘z san’ati, strukturalizm va semiotika kabi fan sohalari bo‘yicha doktorlik (PhD va DSc), magistrlik dissertatsiyalari, kurs va malakaviy bitiruv ishlari; maqola, risola, monografiyalar yozish; darslik va o‘quv qo‘llanmalarini yaratish; universitet va pedagogika universiteti hamda institutlarida tegishli fanlar bo‘yicha ma’ruza matnlarini tayyorlash; korxonalar va ta’lim muassasalarida yangi adabiyotshunoslik muammolariga bag‘ishlangan ma’ruzalar o‘qish; mazkur yo‘nalishlarga oid elektron darsliklar tayyorlash va internet saytlarini yaratishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. “Sarob” romani matnlar orasidagi aloqa-bog‘lanishlarning yuzaga kelish jarayoni intermatnlik muammosi yozuvchi ijodi – milliy adabiyot – jahon so‘z san’ati doirasidagi adabiy-badiiy bog‘lanishlar mexanizmini tadqiq etish orqali intermatnlik hodisasining semiotik mohiyatini aniqlashtirish hamda belgilar orasidagi zid munosabatlarni ifodalashda binar oppozitsiyaning dekonstruktiv ahamiyatini “Muhabbat” qissasi tahlili davomida aniqlashtirishdagi o‘rni aniqlash bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasidagi 2021-2023-yillarda bajarilgan “PF-201912258. O‘zbek adabiyotining ko‘p tilli (o‘zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish” amaliy grant loyihasida foydalanilgan. Jumladan, dissertatsiyaning materiallaridan matnlar orasidagi aloqa-bog‘lanishlarning yuzaga kelish jarayoni intermatnlik muammosi bo‘yicha tadqiq etilgan, uning tahrir, tarjima, iqtibos, an‘ana va barqaror qurilmalar, paralog, allyuziya, reminissentsiya turlari mazkur matn asosida ko‘rib chiqilgan va ijodiy konsepsiya, badiiy mahorat nuqtayi nazaridan baholangan; binar oppozitsiyaning “Muhabbat” qissasi matnidan aniqlangan yetti shakli (personaj (qahramon)ning niyati va amali orasidagi qarama-qarshilik; personajning ong ostidagi niyati (ilinji) bilan nutqda ifodalangan fikri orasidagi ziddiyat; jamiyatda mavjud xurofiy tushuncha-qarashlar bilan qahramon (Anvar, Muhayyo)lar dunyoqarashi, harakat-intilishlaridagi ziddlik; g‘ayriinsoniy, g‘ayriaxloqiy va ilmiy-ma‘rifiy dunyoqarashlar orasidagi tafovut va kelishmovchiliklar; avlodlar tafovuti va ziddiyatlari; milliy mentalitet va mavjud ijtimoiy-siyosiy muhit orasidagi muxolifat er va xotin orasidagi qarama-qarshiliklar) tadqiqidan kelib chiqib, bunday munosabatning matn badiiy strukturasi alohida o‘rni xulosalar orqali isbotlangan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 2-iyundagi 01/4-2252-son ma‘lumotnomasi). Natijada loyiha intermatnlikning jahon so‘z san‘atini yuzaga keltirishdagi o‘rni, zid munosabatning dekonstruktiv vazifalari bo‘yicha ilmiy-nazariy mulohazalar bilan to‘ldirilgan.

Abdulla Qahhor ijodiga tatbiq etish bo‘yicha tajribalar hamda yozuvchi ijodi – milliy adabiyot – jahon so‘z san‘ati doirasidagi adabiy-badiiy bog‘lanishlar mexanizmini tadqiq etish usullariga bag‘ishlangan dissertatsiya natijalaridan:

Davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasidagi 2022-2023-yillarda bajarilgan “IL-52 tur-21091433. O‘zbek realiyalariga oid maqolalar bazasi platformasini yaratish (Wikipedia elektron ensiklopediyasi mezonlari asosida)” amaliy grant loyihasida foydalanilgan. Jumladan, dissertatsiyaning materiallaridan taniqli so‘z san‘atkori Abdulla Qahorning nasriy ijod namunalari struktur semiotik usullar asosida o‘rganish davomida olingan natijalar loyihaning ilmiy nazariy ko‘lamini kengaytirgan; “Sarob” romanining boshqa matnlar bilan aloqa-bog‘lanishlari, intermatnlikning tahrir, tarjima, iqtibos, an‘ana va barqaror qurilmalar, paralog, allyuziya, reminissensiya shakllari bo‘yicha yangicha mulohazalardan loyiha ilmiy konsepsiyasini yuzaga chiqarishda foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 27-avgustdagi 01/4-3797-son ma‘lumotnomasi). Natijada “Sarob” romani va “Muhabbat” qissasi matnlari orasidagi aloqa-bog‘lanishlarning yuzaga kelish jarayoni struktur-semantik usullar asosida isbotlangan.

Badiiy matnning yetakchi jihatlari (belgi xususiyatiga egaligi, strukturaviyligi)ni milliy so‘z san‘ati namunasi “Bemor” hikoyasi) ning semiotik tahlili jarayonida ko‘rsatib-dalillab berish hamda hikoya matni tahlili davomida matniy qatlamlarda paradigmatic, sintagmatic munosabatlar, shuningdek, fonologik, grammatik va semantik darajalarni aniqlash va shu asosda matn strukturaviyligini isbotlab ko‘rsatish va tarixiy xronotop aks etgan matn (“O‘g‘ri” hikoyasi) strukturasi **kampir** lug‘aviy birligining denotat va konnotatsiya sifatidagi vazifa va xususiyatlarini yoritish va shu asosda konseptning matniy qurilmadagi o‘rni va ahamiyatini isbotlash bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida Davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasidagi 2022-2023-yillarda bajarilgan “IL-21091506. O‘zbek ismlarining izohli imlo lug‘ati va mobil ilovasini yaratish” amaliy grant loyihasida foydalanilgan. Jumladan, dissertatsiya materiallaridan “Bemor” hikoyasining badiiy matniga xos belgi tizimi, strukturaviylik, harakat (belgilarning o‘zaro aloqa-tutashuvlari) singari yetakchi xususiyatlar

ko'rsatilgan, paradigmatic, sintagmatik munosabatlar, shuningdek, fonologik, grammatik va semantik darajalar xususidagi yangicha nuqtayi nazarlar bilan boyitilgan; R.Bartning semiotik ta'limotidagi belgi qurilmasida yagona konseptning ikki va undan ortiq bildiruvchilari bo'lishi haqidagi nazariy qarashlari grant loyihasiga tatbiq etilgan. (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 27-avgustdagi 01/4-3796-son ma'lumotnomasi). Natijada loyiha zamonaviy ilmiy-nazariy qarashlar bilan rivojlantirilgan.

Jahon adabiyotshunoslarining badiiy matn haqidagi izlanishlari mahsuli bo'lgan tadqiqotlarni tavsiflash jarayonida ushbu muammo o'rganilgan ishlarning yutuq va kamchiliklarni aniqlash, ilmiy-tanqidiy yondashuv orqali ulardagi zamonaviy nuqtayi nazarlarni milliy (o'zbek) adabiyoti namunalari (Abdulla Qahhor ijodi)ga tatbiq etish, badiiy matnning yetakchi jihatlari (belgi xususiyatiga egaligi, strukturaviyligi)ni milliy so'z san'ati namunasi ("Bemor" hikoyasi)ning semiotik tahlili jarayonida ko'rsatib-dalillab berish hamda so'z san'atkori Abdulla Qahhorning epik ijodi namunalari o'zbek adabiyotshunosligida birinchi marta monografik tarzda struktur-semiotik tafakkur asosida o'rganilganligi hamda zaruriy xulosa-umumlashmalar chiqarilganligi, shuningdek, "Bemor" hikoyasining tahlili jarayonida badiiy matnga xos belgi tizimi, strukturaviylik, harakat – belgilarning o'zaro aloqa-tutashuvlari singari yetakchi xususiyatlar ko'rsatilgan ilmiy qarashlardan Buxoro viloyat teleradiokanalida "Assalom, Buxoro!", "So'z va adabiyot", "Xalq qadrlagan durdonalar" teleko'rsatuvlari hamda Buxoro radiosining "Xalqning ma'naviy boyliklari" radioeshittirishlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan. (Buxoro viloyat teleradiokompaniyasining 2025-yil 11-avgustdagi 01-09-185-sonli ma'lumotnomasi). Natijada teletomoshabinlarning badiiy matnning semiotik tahlil qilishga qiziqishini oshirishga, Abdulla Qahhorning "Bemor" hikoyasi tahlili jarayonida badiiy matnga xos belgi tizimi, strukturaviylik, harakat – belgilarning o'zaro aloqa-tutashuvlari singari yetakchi xususiyatlar bo'yicha ilmiy tasavvur va tushunchalarini boyitishga erishilgan.

"Sarob" romani badiiy matnida badiiy tajassum etilgan akkrativ va enkratik diskurslarning tasvirlangan zamon voqeligini in'ikos ettirishdagi o'rni va ahamiyati ko'rsatilib, roviy va adresat muloqoti va personajlarning o'zaro kommunikativ munosabatining diskursiv mohiyati, bir paradigmatic silsilani tashkil etgan belgilarni voqe etgan diskurslar o'zaro birlashib, alohida diskursiv qurilmani yuzaga keltirishini tizimli tahlili keltirilgan dissertatsiya ishi natijalaridan O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Buxoro viloyati bo'limi huzuridagi yosh ijodkorlarning "Nilufar" adabiy to'garagi mashg'ulotlarini tashkil qilishda foydalanilgan (O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Buxoro viloyati bo'limining 2025-yil 10-oktabrdagi 31-sonli ma'lumotnomasi). Natijada "Sarob" romani badiiy matnida badiiy tajassum etilgan akkrativ va enkratik diskurslarning o'zaro birlashib, alohida diskursiv qurilmani yuzaga keltirishi tizimli tahlil davomida yoritilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya natijalari 6 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya natijalari bo'yicha jami 34 ta ish e'lon qilingan. Ishning natijalari 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyasining asosiy natijalarini nashr etishga tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 18 ta maqola, jumladan, 11 tasi respublika, 7 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Ish "Kirish", 4 asosiy bob, "Xulosa" va

“Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati”dan tashkil topgan. Dissertatsiyaning hajmi 196 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirishda dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati izohlanib, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, tanlangan mavzu bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, ishning maqsadi, vazifalari, tahlil usullari, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, joriylanishi kabilar ko‘rsatilgan, aprobatsiya, natijalarning ilmiy nashrlarda e‘lon qilinishi haqida ma‘lumot berilgan.

Dissertatsiyaning “Badiiy matn” deb nomlangan bobning dastlabki faslida matn istilohi izohlanib, tadqiqot mavzusiga oid ishlar xususida fikr yuritilgan, ularning yutuq va kamchiliklari ko‘rsatilgan.

Fan tarmoqlari, jumladan, filologiyada matnni ikki xil tushunish va ta‘riflash mavjud:

1) an‘anaviy nuqtayi nazar. 1973-yilda chop etilgan o‘zbek ensiklopediyasida shunday deyilgan:

“Tekst (matn – R. S.) lat. textus – to‘qima) – 1) yozilgan yoki bosilgan asar, nutq (shuningdek, ularning biror parchasi); 2) kitob, gazeta, jurnal va sh.k.dagi turli ko‘rsatkich (sharh, izohlardan ajralib turgan qismi); 3) musiqa asarlari (opera, romans va sh.k.)ga yozilgan so‘zlar; 4) matbaada yirik shriftlardan birining nomi...”

Mustaqillik davrida chop etilgan “O‘zbek milliy ensiklopediyasi”da ham matnga yuqorida berilgan sharh saqlanib qolgan, faqat matn va tekst atamalarining o‘rni almashtirilgan. Mazkur istilohni shunday tushunish barcha fan sohalarida keng tarqalgan. Matn deganda, yozuv tarzidagi gaplarning majmuasi anglashiladi.

Adabiyotshunoslikda badiiy asar badiiy matnning ma‘nodoshi sifatida tushunilib, tahlil va tadqiq etiladi. Matnshunoslik deb ataladigan fan tarmog‘i ham mavjud bo‘lib, unda qadimdan hozirgacha saqlanib qolgan turli qo‘lyozma va bosma nashrlar ma‘lum bir muammolar nuqtayi nazaridan o‘rganiladi.

2) yangicha munosabat. Matnga bunday qarash XX asrning ikkinchi choragida strukturalizm, semiotika, freydzizm, germenevtika singari ilmiy yo‘nalishlar doirasida yuzaga keldi. Bu fan sohaları matnga an‘anaviy yondashuvni inkor etmaydilar. Shu bilan birga, ularda matnni anglash an‘anaviy yondashuvdan jiddiy farqlanadi.

Strukturalist va semiotiklarning fikricha, matnga quyidagilar kiradi:

1) barcha yozuvlar;

2) rassomlik, haykaltaroshlik, badiiy adabiyot, musiqa kabi san‘at sohalariga mansub ijod namunalari;

3) inson ruhiyati ifodalari;

4) xatti-harakat, yuz, ko‘z ifodasi.

Yuqorida keltirilgan qaydlardan anglashiladiki, zamonaviy ilmiy oqimlar namoyandalari matnni faqat yozuvdan iborat, deb tushunmaydilar. Ular san‘at asarlari, inson psixologiyasi va uning turli xatti-harakatlariga ham matn sifatida qaraganlar. Bunday munosabatning boisi shundaki, faqat turli-tuman yozuvlar, jumladan, badiiy adabiyot namunalari dagina emas, san‘at asarlari va odam harakatlarida ham har xil belgilar mavjud bo‘ladi. Ana shunday belgilarni aniqlash, tahlil va talqin etish jarayonida ushbu belgilar tarkibidagi yashiringan fikr, nuqtayi nazarlar, kengroq miqyosda olib qaralganda esa muayyan ta‘limot, nazariya, mafkura, dunyoqarashlarni aniqlash va ularga ilmiy-nazariy

asosda baho berish, zaruriy xulosalar chiqarish imkoniyati yuzaga keladi.

Faslda strukturalist va semiotiklar, shu bilan birga, ushbu fan sohalari bilan maxsus shug'ullanmagan bo'lsa-da, ularga baho berib, ma'lum bir munosabat bildirgan ayrim olimlarning ishlariga to'xtalib o'tilgan va shu asosda badiiy matnga zamonaviy yondashuvning asosiy jihatlari tavsiflangan.

Strukturalizmning asoschisi hisoblangan K. Levi Stross (1908-2009) o'z tadqiqotlarida, jumladan, "Структур антропология" kitobida matn istilohini qo'llamagan. U, asosan, etnolog bo'lganligi sababli o'z ishlarida jahon, ayniqsa, Janubiy Amerika qabila va xalqlari urf-odat, marosimlarini o'rgangan. U etnologiya va folklorshunoslikda yangi natijalarga erishish uchun Ferdinand de Sossyur (1857-1913)ning til strukturasi haqidagi nazariyasini etnologiya va mifologiyaga nisbatan tatbiq etadi. Aynan mana shu olimning sa'y-harakatlari natijasida yangi adabiyotshunoslikda dastavval miflar, keyinroq esa badiiy matnlar struktur-semiotik jihatdan o'rganila boshlangan.

K. Levi Stross garchi miflar yangi zamonlarda ham yaratilib, o'sha vaqtlardagi davlat mafkurasi, siyosatini targ'ib etish uchun xizmat qilishini ko'rsatgan bo'lsa-da, o'z ilmiy faoliyatida, asosan, qadimiy miflarni to'plash, tartibga solish va tadqiq etish bilan shug'ullangan. Uning izdoshi bo'lgan strukturalist, semiotik R. Bart (1915-1980) ustozidan farqli ravishda faqat zamonaviy miflarni o'rganish bilan shug'ullangan.

R. Bart mifning eng muhim xususiyati uning semiologik tizim ekanligida namoyon bo'lishini alohida ta'kidlab, shu bilan birga, isbotlab ko'rsatgan. Ma'lumki, har qanday tizim bir nechta uzvlarning o'zaro birikuvidan yuzaga keladi. Jumladan, mif ikkita unsur: bildiruvchi va bilinuvchining munosabatlari asosida shakllanadi. Olim bildiruvchining shakl, bilinuvchining konsept ekanligini qayd etish bilan kifoyalanmay, ularning har biriga xos alomatlarni ko'rsatib, oydinlashtirib bergan. Semiotikning ko'rsatishicha, bildiruvchi alohida olib qaralganda mazmunga ega emas, u faqat bilinuvchi bilan birikib belgi qurilmasini yuzaga keltirgandan keyin muayyan bir mazmunga ega bo'ladi.

R. Bartning matn strukturasi, uning ichki va tashqi aloqalari tadqiqiga bag'ishlangan nazariy va amaliy ishlari metodologik nuqtayi nazardan juda muhim ilmiy-poetik ahamiyatga ega. Bu ishlar nafaqat strukturalizm, shu bilan birga, poststrukturalizm taraqqiyotiga katta hissa qo'shganligi bilan ahamiyatlidir.

Adabiyotshunos, semiotik, madaniyat tadqiqotchisi Yu.M. Lotman (1922-1993)ning matn tadqiqi bo'yicha izlanishlari ham ahamiyatga molik. U sobiq ittifoq hududida birinchilardan bo'lib, sovet mafkurasi tomonidan qoralangan struktur-semiotik sohalar bilan jiddiy shug'ullangan va Tartu-Moskva semiotik maktabiga asos solgan.

Olimning "Структура художественного текста" (1970) kitobida badiiy matnning o'ziga xos struktur-semantik xususiyatlari tadqiq etilgan. Tadqiqotda san'at, shu jumladan, badiiy adabiyot o'ziga xos til sifatida baholangan va u boshqa belgi tizimlari bilan bir qatorda o'rganilgan. Olimning fikricha, belgi tizimlarining zamonaviy nazariyasi kommunikatsiyaning puxta ishlab chiqilgan konsepsiyasiga ega, bu esa badiiy muloqotning umumiy xususiyatlarini belgilashga imkon yaratadi.

R. Bartdan farqli ravishda Y. Lotman ishlarining ayrim o'rinlarida an'anaviy adabiyotshunoslik usul va istilohlariga murojaat etilganini ko'rish mumkin. Jumladan, uning biz o'rgangan kitobida syujet, personaj, xarakter muammolari ham tahlilga tortilgan. Parij semiotik maktabi namoyandalari, jumladan, R. Bart asosiy e'tiborni matn tarkibidagi konnotatsiyalarning aloqa-munosabatlariga qaratganlar. Bu o'rinda aytish kerakki, Lotmanning bunday yondashuviga struktur-semiotik tadqiq usullariga yot hodisa, deb qarash

kerak emas, chunki unda mazkur muammo (syujet, personaj, xarakter)larga struktura tarzida qaralgan va shu asosda tadqiq etilgan.

Atoqli adabiyotshunos, akademik M.B. Xrapchenko “Badiiy ijod, voqelik, inson” nomli kitobiga kiritilgan “Семиотика и художественное творчество” (“Semiotika va badiiy ijod”), “Природа эстетического знака” (“Estetik belgi tabiati”), “Литература и моделирование действительности” (“Adabiyot va voqelikni modellashtirish”) tadqiqotlarida semiotika muammolari haqida o‘zining ilmiy-nazariy qarashlarini bayon etgan.

Atoqli olim “Semiotika va badiiy ijod” maqolasi muqaddimasida belgi va belgi tizimlarini inson ijtimoiy hayotida katta o‘rin tutishini ta’kidlaydi. U semiotikaning ahamiyati haqida shunday deydi: “Semiotika hozirgi kunlarimizda shiddat bilan rivojlanayotgan belgi va belgi tizimlari haqidagi fan, u o‘z oldiga belgi jarayonlarining xususiyatlarini ochishni maqsad qilib, madaniyatning san’at va adabiyot kabi hodisalarini turli nuqtayi nazarlar asosida tadqiq etishga harakat qilayotir”. Tadqiqotchi belgilar haqidagi fanni e’tirof etuvchi fikr-mulohazalardan keyin g‘arb semiotikasining taniqli namoyandalari Ch.Pirs, Ch.Morris, Ya.Mukarjovskiylarning shu sohaga bag‘ishlab yozgan ishlari tahliliga o‘tadi. Bu o‘rinda shuni aytish lozimki, M.B. Xrapchenko o‘z davridagi aksar mutaxassislardan farqli ravishda bunday olimlar ishlariga imkon qadar ilmiy-nazariy xolis va adolatli baho berishga intilgan. Shu bilan birga, maqola muallifi Ch. Morrisning “belgi o‘z-o‘zini ifodayli” degan qarashini ma’qullamaydi. Uning fikricha, voqelik bilan aloqasi yo‘q belgining bo‘lishi mumkin emas: “Belgi shuning uchun belgi hisoblanadiki, u o‘zida qandaydir joy, g‘oya, harakatlarni mujassamlashtiradi. Ana shunday aloqa bo‘lmasa, belgi o‘z ma’nosi, mazmunini yo‘qotadi”. Chindan ham badiiy matn tarkibidagi har qanday belgi axborot berishdan tashqari voqelik yoki inson ruhiyatidagi muayyan xususiyatlardan darak beradi.

Sovet hokimiyati hukm surgan yillarda o‘zbek adabiyotshunosligi jahonda ilg‘or fan sohalari (strukturalizm, semiotika) bilan shug‘ullanmagan. Buning sababi ham yuqorida aytilgan ilmga tazyiq bilan bog‘liq. Milliy mustaqillik davrida M.Xolbekov, A.Rasulov, S.Meliev, Q.Qahramonov, B.Karimov, D.Quronov, H.Boltaboev, G‘.Murodov kabi tadqiqotchilar tomonidan strukturalizm nazariyasi va amaliyotiga oid risola va maqolalar yaratilib, ayrim matnlar shu asosda tahlilga tortilgan. Ammo semiotika milliy adabiyot ilmida hanuzgacha deyarli o‘rganilmagan soha bo‘lib qolmoqda.

Faslida Abdulla Qahhorning “O‘g‘ri” hikoyasi ikkinchi semasiologik tizim (so‘z san’ati) qonuniyatlari asosida tadqiq etilgan.

Bobning ikkinchi faslida badiiy matnga xos quyidagi yetakchi xususiyatlar xususida fikr yuritilgan:

1.Matnning belgi xususiyatiga egaligi.

Belgi semiotikaning asosiy istilohi va tadqiq obyektini hisoblanadi. U badiiy matnni adabiy-poetik tizim sifatida o‘rganishda g‘oyat muhim ilmiy-nazariy qimmat va ahamiyatga ega.

Tilshunoslik nuqtayi nazaridan olib qaraganimizda, har qanday lisoniy birlik va grammatik shakl belgi xususiyatiga ega. Adabiyotshunoslikda esa belgi matndagi badiiy konsepsiya, uning talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib shakllanadi. Boshqacha tarzda aytganda, lingvistika va poetikada belgi aynan bir narsa emas. R. Bart ko‘rsatganidek, til tizimidagi belgi konsepti badiiy matn hududiga o‘tganda, shakl (bildiruvchi)ga aylanadi hamda bunday jarayon davomida yangi konsept yuzaga keladi.

Badiiy matn chek-chegarasiz hodisa bo'lganligi sababli uning tarkibidagi belgilar ham nihoyasizdir. Biror-bir matnni shu nuqtayi nazardan olib qaraganda har bir tadqiqotchi o'z tafakkur darajasi maqsadiga ko'ra undan yangidan yangi belgilarni topishi va talqin qilishi mumkin.

Ma'lumki, badiiy matn muvaqqat hodisa bo'lmay, u abadiyatga taalluqlidir. Insoniyat ma'naviy-estetik taraqqiyotidagi har bir bosqichda muayyan bir matn tarkibidagi ilgari nazarga tushmagan belgilar kashf etilishi bilan bir qatorda ularning talqinlari ham o'zgarib boradi.

Moskva-Tartu semiotik maktabining vakillaridan biri A.A. Lukin M.M.Baxtin va Yu.M.Lotman tadqiqotlariga asoslangan holda shunday yozadi: "matn belgilardan tashkil topgan kenglik bo'lib, belgi(lar) uning asosiy alomatidir".¹⁸ Yu.M.Lotman bu kenglikni "semiosfera" (semiohudud) deb atagan.¹⁹ Olimning fikricha, semiosfera madaniyat taraqqiyotining natijasi, shart-sharoiti bo'lib hisoblanadi.²⁰

Faslda matn sarlavhasi, epigraf, qahramon va personajlarning nomi alohida badiiy-estetik qimmat kasb etishi Abdulla Qahhorning "Bemor" hikoyasi tahlili davomida isbotlangan.

2.Matnning strukturaviyligi. Har qanday matn birinchi navbatda, struktura, ya'ni badiiy-poetik tizim hisoblanadi. Bunday tizim, tabiiyki, o'z-o'zidan yuzaga kelmaydi. U badiiy matn tarkibidagi ko'plab belgilarning bir-biri bilan aloqa-munosabatga kirishishi davomida shakllanadi.

Yu.M. Lotman "Структура художественного текста" ("Badiiy matn strukturasi") nomli kitobida matn qurilmasi birinchi navbatda, paradigmatic va sintagmatic "o'q" (qator)larning shakllanishidan yuzaga kelganini ko'rsatgan. Bu haqda olim shunday deb yozgan edi: "Badiiy matn boshqacha tuzilgan: har bir tafsilot va umuman butun matn turli munosabatlar tizimiga kiradi, natijada bir vaqtning o'zida bir nechta ma'no paydo bo'ladi. Bu xususiyat metaforada namoyon bo'lganda, umumiy xususiyatga ega".

Matndagi turli-tuman belgilarning shu tarzda bir-biri bilan birlashib, muayyan semiotik "o'q"lar hosil qilishini "Bemor" hikoyasi matni misolida ham yaqqol ko'rsa bo'ladi.

Yu. M. Lotman biz qayd etib o'tgan kitobi ("Структура художественного текста") da matn qatlamlarida paradigmatic, sintagmatic munosabatlardan tashqari fonologik, grammatik va semantik darajalar mavjudligini ko'rsatgan.

Biz bu o'rinda mazkur tadqiqotchi va boshqa mualliflarning ishlariga tayangan holda "Bemor" hikoyasidan olingan matniy parchalardagi belgi qurilmasida namoyon bo'lgan fonologik daraja jihatdan ko'rib chiqamiz.

Muammoga shunday nigoh bilan qaraganimizda, har bir birlik tarkibida bir yoki bir necha so'zda o fonemasi mavjudligini ko'ramiz:

bemor, osmon, Sotiboldi, xotini, og'rib qoldi, bemorning boshi, bemor azob tortdi, bemorning sochlari, oxiri, bemor, qaytib ochmadi. Ko'rinyaptiki, keltirilgan 14 ta so'zda 18 marta o fonemasi istifoda etilgan.

O unlisi "hosil bo'lish o'rniga ko'ra – til orqa, tilning tik harakatiga ko'ra quyi ko'tarilish unlisi, labning holati (ishtiroki)ga ko'ra lablanmagan" fonema hisoblanadi.

Fikrimizcha matndagi belgilar qurilmasidagi mazkur nutq tovushi konnotativ

¹⁸A.A.Лукин. Художественный текст. Учебник. -Москва: издательство:"Ось -89", 1999. – С. 93.

¹⁹Ю.М.Лотман. Семиотическое пространство. // Ю.М.Лотман.Внутри мыслящих миров. Человек – текст – семиосфера – история. Москва, 1996. – С. 165.

²⁰Ю.М.Лотман. Семиотическое пространство. // Ю.М.Лотман.Внутри мыслящих миров. Человек – текст – семиосфера – история. Москва, 1996. – С. 165-165.

mazmunga ega bo'lib, oila, inson fojiasini yanada bo'rttirish, syujet drammatizmini kuchaytirish maqsadida qo'llanilgan. Bu fonema badiiy matnlar tarkibida kirish so'z tarkibida ishlatilganda, qahramon hissiyotlarining me'yordan ortiq darajada kuchli ekanligini anglatadi. Shunday jihat tadqiq etilayotgan hikoyada ham kuzatiladi.

Biz keltirgan fonologik qatorda faollik jihatdan o'tovushidan keyingi o'rinda s undosh fonemasi turganini ko'rish mumkin:

osmon, Sotiboldi, kechasi, sochlari, siladi, so'ngra, o'sal, sahar. Bu qatordagi 8 ta so'z tarkibida sakkiz marta s nutq tovushi istifoda etilgan. Biz keltirgan misollarning barchasi ma'lum bir belgilar tarkibidagi so'z yoki so'z birikmalaridir. Matnda alohida belgi tarzida ishtirok etgan Sotiboldi nomi to'qqiz marotaba takrorlangan. Bu esa ushbu ism tarkibidagi konnotatsiya (yakka-yolg'iz farzand) va so'z qurilmasi tarkibidagi birinchi fonema s undoshiga maxsus e'tibor qaratish kerakligini ko'rsatadi.

Til oldi, jarangsiz, sirg'aluvchi bo'lgan bu fonema o'unlisi kabi baland ohangda aytilmaydi. Bu nutq tovushi jarangining yo'qligi, sirg'alib chiqishi va til oldida paydo bo'lishi kabi xususiyatlariga asoslanib, uning matn badiiy ifoda etilgan g'arib oila taqdirining mahzunligi, mavjud tuzum va jamiyat tomonidan yetarli e'tibor topmaganligini ifodalash maqsadida ishlatilganidan dalolat beradi.

Matnni fonologik jihatdan tahlil qilish jarayonida matn fojiviyligini yuzaga keltirishda q va g' undosh fonemalarining ham o'ziga xos o'rni va ahamiyati borligini ko'rsa bo'ladi. Badiiy matn tarkibida bu undoshlar o va s tovushlari kabi ancha faol qo'llanilgan, aynan mana shunday fonemalar ishtirok etgan muayyan lisoniy va sintaktik birliklar (og'rib qoldi, tovuq so'yib qonladi, yo'g'on, og'irlashdi, Abdug'aniboy, oyoqqa bostirib berish, otasining g'azabi, G'avsula'zam, uyqu g'ashligi, qizcha uyg'ondi) mazkur yaratma badiiy konsepsiyasini yuzaga chiqarishda muhim o'rin tutgan.

Mazkur undosh fonemalar yuqorida keltirilgan ayrim lug'aviy birliklar tarkibida kelib, favqulodda hodisa (og'rib qoldi, og'irlashdi, otasining g'azabi, oyoqqa bostirib berish), xurofiy urf-odat (tovuq so'yib qonladi), ruhiy yoxud jismoniy holat tasviri (uyqu g'ashligi, qizcha uyg'ondi) kabilarni ifodalashga xizmat qilgan. Lekin bu o'rinda aytish lozimki, unli va undosh fonemalarning matn doirasida qaysidir bir ma'noni yuzaga chiqarish, kuchaytirish, ta'kidlash kabi vazifalari o'rni cheklangan, ularga yordamchi vositalar tarzida yondashish lozim bo'ladi.

Badiiy matnni shakllantirishda grammatik (morfologik va sintaktik) shakl va vositalarning o'ziga xos o'rni bor. Bu fikr tasdig'ini "Bemor" hikoyasida ham ko'ramiz:

Sotiboldining xotini og'rib qoldi.

Abdug'aniboy omborda qulab ketgan qoplar ostida qolib o'ladigan bo'lganda – ushbu sintaktik butunliklarda ishtirok etgan ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmalari badiiy syujetdagi hodisa (ayolning kasallanishi, boyni jarohatlanishi)ning kutilmaganda bo'lganini ko'rsatmoqda.

Betobning ko'zi tinib boshi aylanadigan bo'lib qoldi. – Bu o'rinda misol sifatida olingan gapdagi ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi yuqorida keltirilganidan jiddiy farq qiladi. Mazkur o'rinda u favquloddalikni emas, natijani ko'rsatyapti.

Muayyan bir matndagi gap qurilmalarining yuzaga kelishi faqat muallifning ixtiyori, uning uslubidagi xoslikkina bo'lib qolmay, matn talabi, ehtiyoji, badiiy-g'oyaviy konsepsiyasiga bog'liq ekanligi tahlil etilayotgan hikoya misolida ayonlashadi.

Ikkinchi – "Matn va belgi" bobining birinchi faslida matnda belgi harakati muammosi tadqiq etilgan.

Badiiy matnning asosiy xususiyatlaridan biri uning cheksizligida ko‘rinadi. Mana shu cheksizlik alomatiga ko‘ra matn koinotga muqoyasa etish mumkin. Bunday bepoyonlik matnning gorizont (yon) va vertikal (tik) ravishda har tarafga qarab muttasil kengayib borishi tufayli yuzaga keladi. Natijada matn o‘zining hajmi, chegaralarini uzluksiz uzaytiradi. Ushbu kattalashish matnning harakati, ya‘ni o‘zidagi belgilarning bir-biri bilan doimiy aloqa-munosabatlarga kirishishidan yuzaga keladi. Atoqli semiotik, postmodernizm namoyandasi R. Bart badiiy asardan farqli ravishda badiiy matnga ko‘plik xususiyati xosligini ko‘rsatgan edi. Uning yozishicha, matnda mazmun aynan mana shu ko‘plik matn yuzaga keltirishga xizmat qiladi. “Matnning ko‘pligi uning mundarijasidagi unsurlarning ikki ma‘no (denotativ va konnotativ)ga ega bo‘lishi bilan emas, bildiruvchilarning ko‘p tarmoqligi sababli paydo bo‘ladi”. Olim aynan mana shunaqa bildiruvchilar matn “mato”sini hosil qilishini ko‘rsatgan.

Biz ushbu faslda Abdulla Qahhorning “Dahshat” hikoyasi semiotik tahlili orqali matn cheksizligi hodisasini oydinlashtirishga harakat qildik.

Bir janr (hikoya) doirasida hajmning ixchamligi yoki kattaligi undagi belgilarning adadi, bu miqdor esa ifoda etilishi lozim bo‘lgan badiiy konsepsiyaning talab hamda ehtiyojlari bilan bog‘liq.

Badiiy matn tadqiqida sarlavhaning alohida ustuvor o‘rni va vazifalari bor. Sarlavha hamisha matndagi yetakchi fikrni yuzaga chiqaruvchi ochqich rolini o‘taydi. Shu bois biz tahlil uchun tanlab olingan hikoya matnining sarlavhasiga dastlabki e‘tiborimizni qaratamiz.

“Dahshat”. Dastavval sarlavha sifatida tanlab olingan bu lug‘aviy birlikning birinchi semasiologik tizim (til)dagi ma‘nosiga e‘tiborni qaratamiz, chunki so‘zning birlamchi (denotativ) ma‘nosi tahlil jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Arab tilidan o‘zlashgan bu so‘z hayronlik, hayratda qolish ma‘nolarini bildiradi.

Tekshirishlarimiz “Dahshat” hikoyasi tarkibida shamol bilan bog‘liq sakkizta matniy bo‘laklar mavjudligini ko‘rsatdi. Ulardan birinchisi – muqaddimada keltirilgan va u narrativ vazifani bajargan – kitobxonni matnga chorlab kelgusi tasvirlarning yana-da ta‘sirchan, dramatik ruhda bo‘lishiga ishora qilayotir. Boshqalarida esa, bu belgi sodir bo‘lgan voqea yoki qahramon va personajlarga bog‘liq holda ko‘rsatilgan.

Tadqiqalarimiz shu narsani ko‘rsatmoqdaki, matn harakati jarayonida shamol bilan bir qatorda go‘riston belgisi ham muhim badiiy-funksional ahamiyat kasb etmoqda. Bu hodisaning asosiy sababi shundaki, aslida shamol konseptining g‘oyaviy-poetik vazifasi go‘riston lisoniy birligi tarkibida mujassamlashgan belgining mohiyatini ochish va aniqlashtirishda ko‘rinadi. Shamol dahshatning o‘zi emas, balki undan xabar beruvchi, u tomon olib boruvchi asosiy alomatdir. Shunday ekan, biz matn badiiy maydonida tajassum etilgan chinakam dahshat mohiyatini yanada chuqurroq anglash uchun asosiy e‘tiborni go‘riston belgisi, aniqrog‘i, uning strukturasiidagi konseptga qaratmog‘imiz lozim bo‘ladi.

Go‘riston konseptining matn badiiy konsepsiyadagi alohida o‘rnini statistik tahlil orqali yanada yaqqolroq bilish mumkin: hikoya matnida shamol lug‘aviy birligi 11 marta qo‘llanilgan bo‘lsa, go‘riston so‘zi 18 marta istifoda etilgan. Shu bilan birga, matnda qabristonga bevosita yoki bilvosita aloqador go‘r, sag‘ana, bo‘yra, kafan singari lisoniy birliklar ishlatilgan.

Hikoya bosh qahramoni Unsinga taalluqli dahshat konnotatsiyasi qabriston haqidagi xurofiy aqidalardan kelib chiqqan bo‘lsa, dodxo ko‘nglidagi nihoyasiz dahshat o‘limdan qo‘rqish hissidan kelib chiqadi. Unsin qalbidagi qo‘rquv tuyg‘usini ma‘lum darajada yengib


qabristonga borib kelish uchun kuch, iroda topa olgan bo‘lsa, dodxo yuragida o‘lim qo‘rquvi saqlanib, hatto kuchayib boradi. Bu esa sodda va hayotiy tajribasi kam yosh juvoni mardonavor xarakter tarzida, hukmfarmo va mustabid dodxoni irodasiz va qo‘rqoq bir kimsa sifatida tasavvur etishga olib keladi. Bu esa “Dahshat” hikoyasi matnining mukammal badiiy-estetik tizim sifatida shakllanishi natijasidir.

Bobning navbatdagi faslida matnning yaxlit tizim sifatidagi xususiyatlari yuzasidan tekshirishlar olib borilgan.

Matn muammosi bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borgan barcha semiotik va strukturalistlar uning yaxlit bir tizim ekanligini e‘tirof etganlar. Jumladan, semiotikaning atoqli namoyandalaridan biri sanalgan Yuriy Lotman shunday yozadi:

“Matn ikkita tashqi chegara oraliq‘idagi belgilarning oddiygina davomiyligidan iborat emas (olim bu o‘rinda ikkita chegara deganda badiiy asarning muqaddimasi va xotimasini nazarda tutgan. – R.S.). Matnga uni sintagmatik darajadagi struktur yaxlitlikka aylantiradigan ichki qurilma xos. Shu sababli, tabiiy tildagi muayyan birikmalarning majmuasini badiiy matn deb tan olish uchun ular badiiy qurilish darajasidagi ikkinchi xildagi ma’lum bir strukturani yuzaga keltirishiga ishonch hosil qilish zarur bo‘ladi.”²¹

Olimning ushbu mulohazasini grafik tarzda quyidagicha ko‘rsatish mumkin:




Matn strukturasi – murakab adabiy-badiiy qurilma. U o‘z tarkibidagi turli-tuman, son-sanog‘ini aniqlash mushkul bo‘lgan belgilarning o‘zaro munosabatlaridan tashkil topadi. Agar matn doirasida ana shunday aloqa-bog‘lanishlar mavjud bo‘lmasa, matn ham vujudga kelmaydi. Xuddi shu sababga ko‘ra, badiiy matnni koinotga mengzash mumkin: adadsiz sayyora va yulduzlar bir-biri bilan butun olam tortishish qonuniga ko‘ra munosabatga kirishib turadi. Agar mana shu tortishish barham topsa, koinot tizimi barham topadi, uning yaxlitligi, binobarin, o‘zi ham halokatga yuz tutadi.

Biz mazkur bobning dastlabki faslida alohida belgilar (shamol, go‘riston)ning butun bir badiiy matn hududi bo‘ylab harakat qilgani va shu asosda matn kengligini yuzaga keltirishda xizmat qilganligi xususida fikr yuritgan edik. Bu o‘rinda aytish lozimki, bu badiiy tizim bepoyonligini ta’minlashda yagona usul emas. Poetik struktura maydonidagi belgilar bir-biri bilan turlicha munosabat-alloqalarga kirishadi, bunday bog‘lanishlar tufayli matnning ko‘p qatlamli va hamma tomon (yuqori, quyi va to‘rt tomon)ga qarab kengayib boradigan badiiy-poetik olami yuzaga keladi.

Matn tarkibidagi bunday tutashishlarni quyidagicha tasnif etish mumkin:

1. Bevosita munosabat – yonma-yon turgan belgilarning uyg‘unligi:



Izoh: bunday yondosh munosabatda faqat ikkita emas, uch va undan ortiq belgi ishtirok

²¹Ю.Лотман. Структура художественного текста. – Москва: Эксмо, 2023. – С. 66.

etishi mumkin.

Misol: Kampir tong qorong‘usida xamir qilgani turib ho‘kizidan xabar oldi.²²

Ushbu sintaktik birlik tarkibida quyidagi belgilar mavjud:

- 1) kampir;
- 2) tong qorong‘usi;
- 3) ho‘kizidan xabar oldi.

Ma‘lum bo‘lyaptiki, mazkur gapda yonma-yon kelgan uchta belgi va har bir belgi qurilmasi (shakl, ma‘no birlashmasi) ichida struktur bog‘lanishlarni ta‘minlaydigan konsept bor.

2. Bilvosita munosabat – bir-biri bilan yondosh bo‘lmagan belgilarning o‘zaro tutashuvi. Matn butunligi faqat yondosh emas, matnning turli joylaridagi belgilarning struktur-poetik aloqa-bog‘lanishlari natijasida ham yuzaga keladi. Bunday munosabatlar paradigmatic, sintagmatic yoki binar ziddik asosida bo‘lishi mumkin. Ushbu nuqtayi nazar tahlilga tortilgan badiiy matn (“O‘g‘ri”)ning turli o‘rinlarida joylashgan, ma‘nosiga ko‘ra bir-biriga yaqin va o‘xshash belgilarni aniqlab, ularning o‘zaro aloqadorligini ko‘rsatish orqali isbotlandi.

“Diskursda belgining matniy-funksional o‘rni” deb nomlangan uchinchi bobning birinchi faslida **akrativ diskursda belgi mohiyati** tadqiq etilgan.

Har qanday matn, eng avvalo, diskursiv ahamiyatga molik hodisa hisoblanadi. Buning sababi shundaki, matn ifoda etgan badiiy konsepsiya diskurs vositasida yuzaga chiqadi.

“Diskursning ustuvor mezonni alohida til muhiti ekanligida namoyon bo‘lib, unda lisoniy qurilmalar yaratiladi. Ushbu nuqtayi nazarga muvofiq, diskurs “til tarkibidagi til”, ya‘ni muayyan leksika, semantika, pragmatika va sintaksis hisoblanib, u o‘zini dolzarblashgan kommunikativ akt, nutq va matnlarda namoyon etadi”.²³

Yuqorida qayd etilgan “til ichidagi til”lardan biri matn, shu jumladan, badiiy matndir. Strukturalizm, poststrukturalizm va semiotikaga oid ishlarda bu tushuncha faol qo‘llaniladi. R. Bart “Tillarning bo‘linishi”, “Tillar urushi”, “Til guldurosi” tadqiqotlarida bu muammoga alohida e‘tibor qaratgan. Olimning fikricha, ma‘lum bir tilning tasniflanishi birinchi navbatda, diskursga bog‘liq. Mavjud hokimiyatga aloqadorlik enkratik, unga taalluqli emaslik esa akrativ diskurs deb ataladi.²⁴ Mazkur mulohazani aniqlashtiradigan bo‘lsak, ijtimoiy nuqtayi nazardan qaralganda, muloqot jarayonida hukumat siyosati, qaror va farmonlari, mafkuraviy tuzimi kabilar haqida so‘z borsa, bunday kommunikatsiya enkratik, shaxsiy hayotga oid yoxud siyosatga bevosita bog‘liq bo‘lmagan sohalar bo‘yicha suhbat akrativ diskurs sanaladi.

Diskurs istilohi lingvistikaga XX asrning asrning 40-yillarida belgiyalik tilshunos E. Buissans tomonidan ilmiy iste‘molga olib kirilgan.²⁵ Hozirgi paytda mazkur atama badiiy matn tahlilida faol qo‘llanilmoqda.

Tadqiqotchi V.I. Karasik diskursning quyidagi turlari mavjudligini qayd etadi:

- 1) shaxsiy;
- 2) institutsion diskurs.²⁶

Olim zamonaviy axborot olamida institutsion diskursning siyosiy, diplomatik,

²²Абдулла Қаҳҳор. Асарлар.Олти томлик. 6-том. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1967. – Б. 59.

²³<https://ru.wikipedia.org/wiki/Дискурс>.

²⁴Ролан Барт. Избранные работы. Семиотика.Поэтика – Москва: Прогресс, 1989. – С. 529.

²⁵Buysens E. Les langages et le discours. – Bruxelles: Office de Publicite, 1943. – P. 17-23.

²⁶Карасик, В. И. О типах дискурса [Текст] / В. И. Карасик // Языковая личность: институциональный и персональный дискурс: сб. науч. тр. – Волгоград : Перемена, 2000. – С. 5–20.

ma'muriy, yuridik, harbiy, pedagogik, diniy, mistik, ilmiy, sahnaviy, tadbirkorlik, reklama, ommaviy axborot kabi sohalarga oid shakllari borligini ko'rsatgan.²⁷

“Til”larning bo‘linishi yuqorida ko‘rsatilgan tasniflar bilangina cheklanmaydi, albatta. Matn diskursi ilmiy, badiiy, publitsistik, shaxsiy kabilarga bo‘linganidek, badiiy matnning o‘zi ham tarkibida bir necha “til”larni jamlay oladi. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, badiiy matn universal, shu bilan birga, juda noyob adabiy-poetik hodisadir.

Bu faslda akkrativ (shaxsiy), ya'ni shaxs (badiiy matn tarkibidagi qahramon, roviy, personaj)ga aloqador diskursda istifoda etilgan belgining matniy-funksional o‘rni, mohiyati haqida fikr yuritilgan. Bob, shu jumladan, mazkur faslda tahlillar uchun Abdulla Qahhorning “Sarob” romani tanlab olingan.

Roman voqea tizimi davomida Rahimjon va Munisxon ruhiy qurilmasidagi ikki jihat (bir-biriga moyillik va xudsevarlik) yuz ko‘rsatib, oxir-oqibat ulardagi xudbinlik ustuvor o‘ringa chiqib olganini ko‘rish mumkin. Matn diskursida bunday binar oppozitsiya roviy tomonidan struktur izchillikda bosqichma-bosqich ko‘rsatilib, oydinlashtirilib boriladi. Matn ifodachisi, ayniqsa, asosiy personajlar (Saidiy, Munisxon) ruhiy olamidagi o‘zgarish-evrilishlar dialektikasiga asosiy e’tiborini qaratadi. Bu hodisani birinchi galda Rahimjon Saidiy psixologiyasi tasviri davomida ko‘ramiz.

Saidiy taqdiridagi navbatdagi fojia uning Munisxonga erisha olmagan bilan bog‘liq. Shu boisdan muallif bayoniga oid diskursda ushbu holatning sabab va oqibatlari aniq psixologik va mantiqiy tahlillar davomida yoritib borilgan.

Fransiyalik strukturalist va semiotik Algirdas-J. Greymas shunday yozgan edi. “План дискурса, в зависимости от типа используемых отношений, проявляется как принадлежащий то парадигмальному, то синтагматическому способу существования”.²⁸ (“Diskurs sathi istifoda etilayotgan munosabatlar turidan kelib chiqib, yo paradigmatic, yo sintagmatic mavjudlik usuliga mansub bo‘ladi”). Strukturalizm otaxonlaridan biri bo‘lgan R. Bartning fikriga ko‘ra, matn diskursidagi munosabatlar uch guruhga bo‘linadi:

1) timsoliy munosabat (bunday aloqadorlik belgining ichida – bildiruvchi va bilinuvchi orasida bo‘lgani sababli olim uni ichki munosabat deb ko‘rsatgan);

2) paradigmatic munosabat (bu kabi bog‘lanish tadqiqotchi tomonidan tizimli munosabat yoxud paradigma deb belgilangan);

3) sintagmatic munosabat (ushbu bog‘liqlik turi paradigmadan farqli ravishda yaqinlik-o‘xshashlikka emas, “qo‘shnichilik”ka asoslanadi).

Keyingi ikki guruh belgi ichida emas, tashqarisida – belgilar orasida yuzaga kelgani sababli R. Bart ularni tashqi munosabatlar doirasiga kiritgan. Bundan tashqari, semiotik olim boshqa ayrim ishlarida belgilararo munosabatning yana bir turi – binar oppozitsiya haqida fikr yuritgan.

Binar oppozitsiya juftlikka asoslangan zidlikni ifoda etuvchi alohida belgilararo munosabat shakli bo‘lib hisoblanadi. U “olamni ratsional tasvirlashning universal vositasi hisoblanib, unda bir vaqtning o‘zida ikkita qarama-qarshi tushuncha ko‘rib chiqiladi, bulardan biri qandaydir xususiyatni tasdiqlasa, boshqasi uni inkor etadi. Intuitsiyaning zid qo‘yiladigan turli shakllariga oid diskursiv tafakkurning ajralmas xossasi hisoblanadi”.²⁹

²⁷<https://cyberleninka.ru/article/n/harakteristiki-institutsionalnogo-diskursa/viewer>.

²⁸Альгирдас-Ж. Греймас. Структурная семантика. Перевод с французского Л. Зиминной. – Москва: Академический проект, 2004. – С. 59.

²⁹ <https://ru.wikipedia.org/wiki>.

Bu atama birinchi bo‘lib tilshunos olim N. S. Trubeskiy tomonidan fanga olib kirilgan.

Badiiy adabiyotda timsoliy munosabat ikki xil shaklda yuzaga keltiriladi:

- 1) istioraviy tarzda;
- 2) qiyoslash vositasida.

“Sarob” romani matnida bunday usullarning ikkalasini ko‘rish mumkin. Aksar hollarda badiiy asar sarlavhasi ko‘chma-ramziy ma’noni ifodalaydi, bu esa istiora san’ati yordamida yuzaga chiqadi.

Abdulla Qahhorning nafaqat “Sarob” romani, shuningdek, bir qancha hikoya, qissa, komediyalari sarlavhalari istioraviy asosga ega:

“O‘g‘ri” – chor mustamlakachilik idora tizimining poraxo‘rlik, talonchilik asosida tashkil topganini ifodalaydi.

“Bemor” – zulmga asoslangan mustabid qurilmaning ijtimoiy, axloqiy jihatdan nosog‘lomligini bildiradi.

“Nurli cho‘qqilar” – milliy axloq va tarbiyaning yuksak ahamiyatiga ishora etadi.

“Dumli odam” – Turkiston aholisi, jumladan, o‘zbeklarga past nazar bilan qaraydigan irqchi kimsalarning timsoliy ifodasi.

“Sinchalak” – jussasi kichik, ammo kuch-g‘ayrati ko‘p faol va tashkilotchi o‘zbek qizining badiiy ifodasi.

“Og‘riq tishlar” – kibr-havoli johil amaldor va yulg‘ich shifokorga ishora.

“Sarob” romani badiiy matnining ko‘lamdor sathida o‘z ifodasini topgan akkrativ diskursda roviy bayoni, shu bilan birga, qahramon va personajlarning muloqot davomida ifoda qilingan mushohadalari, qalb olamida kechgan taassurot, xotira, o‘y-fikrlari orqali yuzaga kelgan turli-tuman belgilardagi konseptlar voqea tizimida in’ikos topgan obrazlarga taalluqli shaxsiy xususiyatlarni yuzaga chiqarishga xizmat qilgan. Bunday xususiyatlar adresatga ularni shaxs sifatida baholash, xarakterining muhim jihatlarini tushunish, nuqson yoki fazilatlaridan ogoh bo‘lish, ruhiy dunyosidagi qatlamlarning mohiyatini anglash imkoniyatini yaratib bergan. Eng muhimi, roman badiiy-poetik qurilmasidagi belgilar matn yaxlitligini, uning mukammal bir adabiy tizim ekanligini ko‘rsatgan. Mana shunday mustahkam tizimning mavjudligi romanning badiiy yaratma sifatidagi qimmatini, ahamiyatini ko‘rsatadi, chunki ijod namunasining yashovchanligi undagi barcha birliklar, xususan, belgilarning o‘zaro harakati va ana shunday bog‘lanish-birlashishlar tufayli matn strukturasi yuzaga kelishiga bog‘liq bo‘ladi. Masalaga ana shunday nuqtayi nazardan qaralganda, “Sarob”ning yozilganiga yuz yilga yaqin vaqt bo‘lgani, butunlay yangi ijtimoiy-siyosiy tuzumga qadam qo‘yilganiga qaramasdan, u badiiy yaratma sifatida yashash va kitobxonlar e’tiborini tortishda davom etayotir. Bu hodisaning asosiy sabablaridan biri esa unda tasvir etilgan qahramonlarning hayotiyliigi, badiiy jozibasini, ularning nafaqat ijtimoiy faoliyati, shuningdek, shaxsiy hayoti, ichki kechinmalari, psixologik holatlarini realistik metod talab va mezonlariga muvofiq ishonarli hamda hayot haqiqatiga muvofiq badiiy ifoda topganligidadir. Roman matnida akkrativ diskursdagi belgi strukturasi va aloqa-bog‘lanishlarini tahlil etish mana shunday xulosaga kelishga imkon beradi.

Bobning navbatdagi faslida **matnda enkratik diskursning** poetik funksional xususiyatlari yoritilgan.

Roman matn sifatida murakkab badiiy-estetik strukturaga ega. Bu qurilmada nafaqat qahramonlarning shaxsiy turmushi, oilaviy hayoti, sevgi sarguzashtlari, ularning o‘zi va yaqinlari haqidagi o‘y-fikr va mulohazalari, shuningdek, jamiyatning muayyan bir davrdagi ijtimoiy-siyosiy tuzumi bilan bog‘liq ahvoli, xalq, millat, mamlakat, davlat,

bashariyat miqyosidagi muammolar, guruhlar, tabaqalar orasidagi munosabatlar o'z badiiy ifodasini topadi. Ushbu bobning birinchi faslida qayd etilganidek, Rolan Bart bunday aloqa-bog'lanishlar enkratik diskursda ifodalanishini ko'rsatgan.

“Sarob” romani sovet davlatining qatag'on siyosati avj nuqtaga ko'tarilayotgan bir paytda – XX asrning o'ttizinchi yillari o'rtalarida yaratilgan va unda 20-yillarda mamlakatda kechgan voqea-hodisalar o'z ifodasini topgan. Bu davrda sobiq ittifoq hududiga kirgan Turkistonda yer-suv islohoti, “madaniy inqilob” singari siyosiy jarayonlar boshlangan, aholi sun'iy ravishda bir-biriga zid qo'yilgan ikki guruh (“sinf”) ga ajratilgan edi. 20-yillarda asr boshlarida vujudga kelib, rivojlanish bosqichini boshdan kechirgan jadid harakati garchi sovet tuzumining tazyiq va xurujlarga uchrayotganiga qaramay, hali kurash maydonidan chekinmagan, kuchlar nisbati teng emasligiga qaramay, o'z g'oya va ideallarini amalga oshirishga urinmoqda edi. Biroq 30-yillarga kelib vaziyat jiddiy o'zgardi. Siyosat, harbiyot, ijtimoiy boshqaruvni to'la-to'kis o'z qo'liga olgan sovet hukumati endi mafkura, madaniyat, san'at, ayniqsa, badiiy adabiyot sohalarini qo'lga olib, bu jabhalarda o'z hukmronligini namoyish qilishga kirishdi. Jadid harakati va adabiyoti endilikda nafaqat yig'ilish va turli qarorlarda, shuningdek, “ilmiy tadqiqot”larda ham o'rganilib, uning “zararli burjuacha mohiyati” ko'rsatila boshlandi. Badiiy adabiyotning turli janrlarida, xususan, dramaturgiya namunalarida ozodlik uchun kurashgan vatanparvar insonlar “bosmachi”, jadid harakatining namoyandalari esa ularning g'oyaviy rahnamolari tarzida talqin qilindi. Birinchi o'zbek zamonaviy romani bo'lgan “Sarob” ana shunday tahlikali, g'oyat chigal va murakkab bir vaqtda yuzaga keldi.

Har qanday badiiy asar matn darajasiga ko'tarilishi uchun birinchi navbatda, mukammal adabiy-badiiy tizim darajasiga ko'tarilishi lozim. Bunday barkamol tizimning yuzaga kelishi, avvalambor, muallifning iste'dod darajasi, uning ijodkorlik malakasini qay darajada egallagani bilan bog'liq, albatta. Shu bilan birga, badiiy ijod namunasi haqiqiy san'at namunasiga aylanishi uchun unda moziy va hayot haqiqati tarixiylik mezonlariga muvofiq badiiy ifoda topishi zarur bo'ladi. Faqat shunday asarlarga matn darajasiga ko'tarila oladi hamda bashariyat adabiy-badiiy xazinasining o'lmas durdonalari sirasidan o'rin oladi.

Enkratik diskurs badiiy matnda quyidagi tarzda yuzaga chiqadi:

- 1) roviy va adresat muloqoti;
- 2) matn syujetida ishtirok etgan personajlarning o'zaro kommunikativ munosabati orqali.

Dastlab roviy yoxud bayonchi bilan adresat (kitobxon) muloqotida namoyon bo'ladigan diskurs shakliga to'xtalamiz. Bu o'rinda bayonchining kimligi, uning muallifga aloqadorligi haqida ham aytish kerak bo'ladi. An'anaviy adabiyotshunoslikda, odatda, roviy muallifga tenglashtiriladi, badiiy asarda personajlar nutqidan tashqarida bo'lgan bayon, tasvir mulohaza, qarashlar ijodkorga taalluqli, degan nuqtayi nazar oldinga suriladi. Poststruktural ta'limotlarda esa roviyga muallifdan jiddiy farq qiladigan alohida bir obraz sifatida qaraladi. R. Bartning “Muallifning o'limi” deb atalgan mo'jaz tadqiqotida bu haqda shunday deyilgan:

“...agar pirovardda timsoliy faoliyatga oid bo'lmagan qandaydir vazifadan tashqari voqelikka to'g'ridan to'g'ri ta'sir etish uchun emas, balki hodisaning o'zi uchungina fikr bayon ifodalanayotganda, ovoz o'z manbasidan uziladi, muallif uchun o'lim boshlanadi

va aynan shu yerda matn boshlanadi”.³⁰

Tadqiqotchi Bahoroy Shukurova o‘zbek hikoyachiligi poetikasiga bag‘ishlangan dissertatsiyasida R.Bart nazariyasiga asoslangan holda shunday yozadi: “roviy muallif nutqini shartli ravishda ifoda etar ekan, “aniqlashmagan uchinchi shaxs” yoxud “men” bo‘lishidan qat’iy nazar, muallif nutqini ifodalaydi, ammo bu bevosita emas, bilvosita ifoda bo‘lib, badiiy nutq jarayonidagina yuzaga keladi, u ijodiy tasavvur mahsuli bo‘lganidan, muallifga tenglashtirilishi mumkin emas. Xuddi shu sabablarga ko‘ra, roviy so‘z san’atkorining turli asarlarida turlicha qiyofa va ovoz bilan namoyon bo‘ladi. Ular xarakter, tabiat, dunyoqarash, tafakkur va madaniyat darajasi nuqtayi nazaridan bir-biridan va hatto muallifdan jiddiy farqlanib turadi”.³¹

Chindan ham matn bo‘yicha tekshirish va tahlillar matn bayonchisining muallifdan hamisha farqlanishini ko‘rsatadi. Bu hodisa matnning muallifga tobe bo‘lmagan mustaqil poetik tizim ekanligidan dalolat beradi. U muallifga emas, o‘z tarkibidagi birlik (leksiya)larda ifoda topgan belgilarning o‘zaro harakatiga, umumadabiy qonuniyat va tamoyillarga bo‘ysunadi, natijada Rolan Bart ko‘rsatganidek, matn ijodkordan uzilib, o‘z mustaqilligini namoyish eta boshlaydi. Bunday hol qalam sohibining iste’dodi, mehnatini kamsitmaydi, chunki qalam sohibi matn yuzaga kelishi ishtirokchisidir. Bu yozuvchi uchun ulkan sharaf hisoblanadi, negaki u abadiyatga daxldor badiiy durdona yaratish jarayoniga bevosita daxldor shaxsdir.

Matnning yuqorida ko‘rsatilgan xususiyati unga taalluqli bo‘lgan har bir badiiyat namunasi tegishlidir. Biz “Sarob” romaniga ham matn sifatida yondashamiz va tadqiq jarayonida shunday badiiy-poetik tizim talablariga nechog‘lik javob bera olishini ko‘rsatishga harakat qilamiz.

“Sarob” matni qurilmasida enkratik diskurs miqyosining kengligi, ko‘lamdorligi bilan ajralib turadi. Bu hodisaning boisi shundaki, roman katta epik janr sifatida faqat qahramon(lar)ning shaxsiy hayoti, uning ichki olami, ruhiy kechinmalari, boshdan kechirgan sarguzashtlari tasviri bilangina kifoyalani qolmaydi. U katta bir davrni imkon darajasida kengroq, teranroq qamrab olishga intiladi, o‘z badiiy hududida xalq, millat, insoniyatning yuksak intilishlari, urf-odatlar, milliy mentaliteti, tabaqa, guruhlararo aloqa-bog‘lanishlarni murosa va ziddiyatlarni, davlat boshqaruvi, siyosat, mafkura, turli-tuman dunyoqarashlarni badiiy tajassum ettiradi. Ushbu janrning serko‘lamligini ilm ahli orasida birinchi bo‘lib payqagan olmon mutafakkiri Hegel romanni “yangi zamon epopeyasi” deb atagan edi.

Olmon faylasufi Yu. Xabermas shunday yozgan edi: “Diskurs – ijtimoiy hayot qadriyat va mezonlarini tanqidiy ko‘rib chiqishga mo‘ljallangan nutqiy muloqotdir”.³² Olimning bu fikri birinchi navbatda, badiiy matn tarkibidagi enkratik diskursga taalluqlidir.

“Sarob”ning birinchi faslidayoq enkratik diskursga aloqador muloqot o‘z ifodasini topgan:

“Qiz bir gap bahonasi bilan Saidiyning yuziga bir lahza tikildi-yu, negadir qizardi:

- O‘zi-ku bizni ilm-urfonga chanqoq xalq deydi, yana mehnatkash-u nomehnatkash deb xalqni ajratgani nimasi!..

³⁰Ролан Барт. Смерть автора./ https://hist.bsu.by/images/stories/files/uch_materialy/muz/3_kurs/Eстетика_Leschinskaya/4.pdf.

³¹B.B. Shukurova. Zamonaviy o‘zbek hikoyachiligi poetikasi. (Sh.Xolmirzaev, E. A‘zam, N.Eshonqul ijodi asosida) filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – B. 76

³²Habermas, J. Erläuterungen zum Begriff des kommunikativen Handelns // Habermas J. Vorstudien und Ergänzungen zur Theorie des kommunikativen Handelns. Frankfurt am Main: Suhrkamp Verl., 1989. S. 571.

- Men ham kecha kelgan edim. Bir professor firqa yacheykasining kotibi bilan urishdi: “O‘zlaring o‘qit deysizlar-da, yana chek qo‘yasizlar” deydi”.³³

Sovet davri kitobxonlari (adresat) aksar holda bunday kommunikatsiyani boy oilaga mansub erkatoyni qiz va badavlat tabaqaga moyil yigitning “yangi zamon talablari”dan noroziligi tarzida tushungan. Ammo aslida mazkur muloqotda o‘sha zamon (XX asrning 20-50 yillari)dagi ta’limga oid g‘ayriinsoniy va g‘ayrimilliy taqiqlar haqida gap bormoqda.

“Sarob” zolim hokimiyat hukmfarmo bo‘lgan davrning o‘tkinchi asari emas, chinakam badiiy kashfiyot – matn tarzida yaratildi. Har qanday badiiy matn ilohiy olam ne‘mati, nafaqat muallifga, balki u mansub bo‘lgan xalqqa, insoniyatga berilgan umrboqiy tuhfadir. Matnning ilohiy-ruhoniyligining substansiyasi, mustaqil badiiy tafakkuri, xususan badiiy diskursning tarixiylik tamoyillari asosida yaratilgan zamonning qattol g‘oya-xurujlarini ham, muallifning zamon mafkurasi talablaridan kelib chiqqan ijodiy maqsadini ham inkor etib, “Sarob”ning kelajak avlodlar uchun nodir badiiy durdona sifatida yuzaga kelishiga imkon yaratdi.

To‘rtinchi bob (“**Intermatn va binar oppozitsiya**”)ning birinchi faslida **yozuvchi ijodi – milliy adabiyot – jahon so‘z san’ati doirasidagi adabiy-badiiy bog‘lanishlar** o‘rganilgan.

Matn harakati faqat o‘z sathi doirasi bilan cheklanib qolmaydi. Uning asosiy xususiyati bo‘lgan harakat hamisha ilgoriga undaydi. Albatta, bunday intilish o‘z-o‘zidan yuzaga kelmaydi: u badiiy matn hududidagi belgilarning turli munosabatlari (paradigmatika, sintagmatika, binar oppozitsiya) natijasida yuzaga keladi.

Matnlararo adabiy-poetik bog‘lanishlar semiotikada **intermatnlik** deb ataladi. Bu nisbatan yangi atama bo‘lib, 1967-yilda psixanalitik va semiotik Yuliya Kristeva³⁴ tomonidan ilmiy iste’molga kiritilgan. Garchi mazkur istiloh ushbu olim tomonidan birinchi bo‘lib qo‘llanilgan bo‘lsa-da, adabiyotshunoslikda ushbu qarashning genezisini tadqiqotchilar, shu jumladan, L.V. Grishkova M.M. Baxtinning dialogik badiiy tafakkur ta’limotiga bog‘lab ko‘rsatadilar.³⁵ Bunday nuqtayi nazarining haqqoniyligini allomaning quyidagi fikri asoslashga xizmat qiladi: “Dialogik kontekstda birinchi va so‘nggi so‘z yo‘q: unda hech qanday chek-chegara mavjud emas – u nihoyasiz o‘tmish va nihoyasiz kelajakka qarab keta oladi. Hatto qadimga oid, ya’ni o‘tgan asrlar dialogida yuzaga kelgan ma’nolarni hech qachon barqaror, uzil-kesil tugallangan deb hisoblab bo‘lmaydi. Ular dialogning navbatdagi bosqichlarida hamisha o‘zgarib, yangilanib boradi. Dialog taraqqiyotining istalgan holatida cheklanmagan miqdorda unutilgan ma’nolarning ulkan xirmoni mavjud bo‘ladi. Ammo dialogning keyingi rivojining muayyan paytlarida ular yana eslanadi hamda yangilangan holda tiriladi”.³⁶

Keltirilgan iqtibosda atoqli olim dialog sifatida matnlar orasidagi aloqa-bog‘lanishlarni nazarda tutmoqda. Undan shu narsani tushunish mumkinki, bashariyatning

³³Абдулла Қаҳҳор. Асарлар. Олти томлик. 3-том. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги бадий адабиёт нашриёти, 1976. – Б. 10 (bundan keyingi iqtiboslar shu manbadan olinib, qavs ichida sahifasi ko‘rsatiladi).

³⁴Юлия Стоянова Кристева – kelib chiqishi jihatidan bolgar millatiga mansub frantsiyalik tadqiqotchi, Poststrukturalizm nazariyotchisi, atoqli alloma Rolan Bartning shogirdi va ilmiy maktabining davomchisi, geno- va fonomatn, intermatn nazariyalarining asoschisi hisoblanadi. “Семиотика”(1969), “Поэтик тил инкилоби”(1974), “Пололог” tadqiqotlarining muallifi. Uning “Poetika halokati” maqolasi ilmiy qarashlarini baholashda muhim manba hisoblanadi.

³⁵Л.В. Гришкова. Диалогизм М.М. Бахтина и современная теория интертекстуальности. Вестник КГУ, 2012. № 4. / <https://cyberleninka.ru/article/n/dialogizm-m-m-bahtina-i-sovremennaya-teoriya-intertekstualnosti>.

³⁶Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. – М.: Искусство, 1986. / <https://runivers.ru/upload/iblock/94e/bahtin.pdf>.

butun badiiy taraqqiyotida yuzaga kelgan adabiy yaratmalardagi tasvir, ifoda, kod (belgi)lar hech qachon o'z holicha qolib ketmaydi. Muayyan vaqtda yangidan yaratilgan matnlarda muayyan darajada o'zgargan, zamonaviy tafakkur va shart-sharoitlarga moslashgan holda qaytadan yuzaga keladi. Bu o'rinda qaysidir shakllar, masalan, janr haqida gap ketayotgani yo'q. M.M. Baxtin asosiy e'tiborni ma'no (ma'ni, sema)ga qaratmoqda.

Matnlararo munosabat muammosiga Rolan Bart ham alohida e'tibor qaratgan. U bu haqda shunday yozadi: "Har bir matn intermatn hisoblanadi, unda boshqa matnlar turlicha darajada, ozroq yoxud ko'proq tanish ko'rinishda – oldingi madaniyat matnlari va uni o'rab turgan madaniyat matnlari tarzida namoyon bo'ladi. Har bir matn eski iqtiboslardan to'qilgan mato sifatida ko'z o'ngimizda gavidalanadi. Madaniy kod, formula, ritmik strukturalar parchalari, ijtimoiy iboralar bo'laklari va boshqalar – bularning barchasi matn tomonidan qabul qilinib, uning tarkibiga singdiriladi, chunki matngacha va uning atrofida til mavjuddir. Istalgan matniy qurilmadagi intermatnlikning dastlabki zaruriy sharti shundaki, uni manbalar va ta'sir muammosiga bog'lab bo'lmaydi: u kelib chiqishini kamdan kam holda aniqlash mumkin bo'lgan qo'shtirnoqlarsiz beriladigan anonim formula, g'ayri shuuriy yoki mashinavori iqtiboslarning umumiy sathini ifodalaydi".³⁷

Olim "Asardan matn sari" nomli maqolasida yana shunday qarashlarni bayon etadi: "Har bir matn boshqa bir matnga nisbatan "oralik matn"dir, biroq ushbu intermatnlikni "matnda qandaydir bir kelib chiqish manbai" bor deb tushunish kerak emas; "manba" va "ta'sir"larni izlash asar filiatsiyasi haqidagi mifga o'xshaydi, matn esa – yashirin, sezilmas, ayni paytda o'qilgan sitata (qo'shtirnoqsiz sitata) lardan hosil bo'ladi".³⁸

R Bartning intermatnlikka oid bunday qarashlari e'lon etilgach, ba'zi bir tadqiqotchilar uning bunday qarashlarini rad etishga harakat qildilar. Jumladan, fransiyalik olim Natali Pego-Gro: "agar bularning hammasini (R.Bart fikrlari nazarda tutilmoqda – R.S.) intermatn deb qaraydigan bo'lsak, intermatnlikni har qanday o'ziga xoslikdan, mazkur tushunchani esa samaradorlikdan mahrum etgan bo'lamiz", – deb yozadi".³⁹ Rossiyalik semiotik V.Ye. Chernyavskaya fikricha, Rolan Bartning bunday konsepsiyasi "radikal", ya'ni o'ta keskin mazmunga ega.⁴⁰

Aslida fransuz semiotik olimining mazkur qarashlarida radikallik ham, intermatndagi o'ziga xosliklarni inkor etishga urinish ham yo'q. Bu fikrni M.Baxtin va R.Bart mulohazalarini o'zaro muqoyasa etganda, yaqqol ko'rish mumkin. Rus allomasining "dialogik kontekstda birinchi va so'nggi so'z yo'q" degan nuqtai nazariga g'arb olimining "har bir matn eski iqtiboslardan to'qilgan mato sifatida ko'z o'ngimizda gavidalanadi" tarzidagi mulohazasi o'zaro yaqin hamda hamohang.

Biz belgi munosabatlariga bag'ishlangan avvalgi (PhD) dissertatsiyamizda shoir R. Parfi lirikasini mazkur muammo nuqtayi nazaridan tadqiq etish jarayonida quyidagi tasnif asosida ish ko'rgan edik:

1) bir ijodkor qalamiga mansub matnlarda;

³⁷ Ko'chirma ushbu manbadan olindi: <https://cyberleninka.ru/article/n/dialogizm-m-m-bahtina-i-sovremennaya-teoriya-intertekstualnosti/viewer>.

³⁸Rolan Bart. Избранные работы. Семиотика. Поэтика. – Москва: Прогресс, 1989. – С. 418.

³⁹Пьеге-Гро Натали. Введение в теорию интертекстуальности/Пер. с фр.; Общ. ред. и вступ. ст. Г.К. Косикова. – М.: Изд-во ЛКИ, 2008. / <https://cyberleninka.ru/article/n/2008-03-001-piege-gro-n-vvedenie-v-teoriyu-intertekstualnosti-per-s-fr-obsch-red-i-vstup-st-kosikova-g-k-m-izd-vo-lki-2008-240-s/viewer>.

⁴⁰Чернявская В.Е. Интертекстуальность и интердискурсивность // Текст – Дискурс – Стил. Коммуникации в экономике: Сб. науч. ст. – СПб.: Изд-во СПб. ГУЭФ, 2003. – С. 23–42.

- 2) ayrim (milliy) adabiyot doirasida;
- 3) jahon adabiyoti miqyosida.⁴¹

Abdulla Qahhorning nasriy ijodini matnlararo aloqa-tutashuvlar bo'yicha o'rganishda ushbu tasnifga ham asoslanamiz va tadqiq jarayonida intermatnlikning eng asosiy shakllarini Abdulla Qahhor nasri asosida ko'rib chiqamiz.

Poststrukturalist va semiotik Robert S. Miola "Seven types of intertextuality" ("Intermatnlikning yetti xili") maqolasida ushbu adabiy-badiiy hodisaning quyidagi shakllarni ko'rsatgan:

1. Revision (tahrir)
2. Translation (tarjima)
3. Quotation (boshqa matndan so'zma-so'z olingan iqtibos)
4. Sources (manbalar)
5. Conventions and configurations (an'ana va barqaror qurilmalar)
6. Genres (janrlar)
7. Paralogues (paralog (soxta matn yoxud avvalgi matnning noto'g'ri talqini)lar⁴²).

Faslda Abdulla Qahhorning nasriy ijodi namunalari ("Sarob", "Qo'shchinor chiroqlari" romanlari, ayrim hikoyalari) adabiyotshunoslikda nisbatan mukammal bo'lgan mazkur tasnif asosida tadqiq etildi va zaruriy xulosalarga kelindi.

Bu o'rinda shuni ham aytish kerakki, Robert S. Miolaning intermatnlik bo'yicha tasnifi hozirgacha adabiyotshunoslikda nisbatan mukammalligi bilan ajralib tursa-da, unda ayrim yetishmoqchiliklar mavjud. Jumladan, ushbu tasnifga intermatnlikka oid allyuziya va reminissensiya hodisalari kiritilmagan.

Bu adabiy usul mumtoz shoirlar tomonidan faol qo'llanilgan. Abdulla Qahhor ijodida, xususan, uning "Tomoshabog'", "Munofiq", "Asror bobo" hikoyalarida allyuziya Turkiston tarixi bilan bog'liq voqea, tartibotni eslatish maqsadida qo'llanilgan.

"Tomoshabog'" matnining sarlavhasi, voqea tizimi, undagi obrazlarning qismati chor mustamlakachilik siyosati bilan bog'liq holda berilgan. Hikoyada tobi qochgan usta Hamroqulning chor ma'murlari sayr qiladigan bog'ga kirishi janjalga va usta hamda uning qorovul tanishi – usta kulolning qamalishiga sabab bo'lgani tasvirlangan. Matnda bosqinchi zobitlar tomonidan ayrim obod joylarga: "Сартам и собакам вход воспрещен" degan taqiq yozib qo'yilganiga ishora qilingan. Bu ishora esa chor mustamlakachilik tizimining g'ayriinsoniy tartiblar bilan ish ko'rganini ko'rsatadi.

Badiiy ijod namunalari intermatnlikning yana bir shakli – reminis-sensiyaning o'ziga xos o'rni bor. Bu badiiy usul vositasida "muallif tomonidan badiiy matnda o'z yoki o'zganing asaridagi ayrim unsurlar, ochiq yo yashirin ko'chirmalar, obrazlar o'zlashtiriladi".⁴³ Bunday o'zlashtirishlar ixtiyoriy (muallif maqsadiga ko'ra) yoxud g'ayriixtiyoriy (muallif bu hodisani sezmaganda) bo'lishi mumkin.

Abdulla Qahhor badiiy ijodi namunalari mazkur badiiy usul ma'lum darajada istifoda etilgan. Misollar keltiramiz: "Qabrdan tovush", "Tobutdan tovush" – adibning satirik komediya sarlavhasining yuzaga kelishida uning yigirma yilcha oldin yozgan hikoyasi nomi asos vazifasini o'tagan. Fikrimizcha, bunday tanlov intuitiv (g'ayrishuuriy)


⁴¹Р.А. Саидова. Бадий матнда белги муносабатлари. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)диссертацияси. Бухоро, 2020. – Б. 93-94.

⁴²Robert S. Miola. Seven types of intertextuality./ [https://loyolanotredamelib.org/Chaired/docs/Seven Types Intertextuality - 04.pdf](https://loyolanotredamelib.org/Chaired/docs/Seven%20Types%20Intertextuality%20-%2004.pdf).

⁴³https://oxford.ru/wiki/literatura/reminiscence?utm_referrer=https%3A%2F%2Fwww.google.com%2F

ravishda yuz bergan. Bu ichki, ya'ni bir ijodkor adabiy merosi doirasidagi reminissensiyadir. Biroq mazkur adabiy-badiiy hodisaning tashqi manbasi (Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" romani sarlavhasi) ham bor.

Intermatnlikning ushbu namunasini chizmada gavdalantiramiz:



“Sarob” romanida tashqi reminissensiya Jek Londonning “Martin Iden” asari bilan bog‘lanishda yuzaga kelgan. Bu intermatn aloqadorlik amerikalik adib romanining 42-bobi va A.Qahhor asaridagi 2-bo‘limning 1-fasli tasvir etilgan “vodiydagi qasr” haqidagi xayollari tasvirida namoyon bo‘lgan.

Bobning navbatdagi faslida **binar oppozitsiya** muammosi Abdulla Qahhorning “Muhabbat” qissasi asosida tahlil etilgan. Binar muxoliflik semiotikada nisbatan kam o‘rganilgan muammolardan biridir. An’anaviy adabiyotshunoslikda badiiy matn sathida mavjud bo‘lgan qarama-qarshiliklar ko‘p vaqtdan buyon konflikt tarzida tadqiq etib kelinmoqda. Garchi konflikt va binar oppozitsiyaning asosida ziddiyat tursa-da, ular bir hodisani ifodalagan ikkita atama emas. Konflikt badiiy asardagi ishtirokchilar, ularning dunyoqarashi, tafakkuri, hayot tarzi orasidagi zidliklarni ifodaydi. Binar yoxud juftlik asosidagi zidlik esa belgilar orasida sodir bo‘ladi. Shunga ko‘ra, bu atama semiotika, shuningdek, strukturalizmga tegishlidir. “Binar oppozitsiya (binar tizim) — ma’nosiga ko‘ra qarama-qarshi bo‘lgan o‘zaro aloqador istilohlar juftligidir. Binar zidlik – til yoki tafakkur tizimi bo‘lib, uning vositasida ikkita nazariy zidlik qat’iy ravishda belgilanadi va bir-biriga qarama-qarshi qo‘yiladi. Bu bir-birini inkor etuvchi “yoqish – o‘chirish”, “baland-past”, “so‘l – o‘ng” singari atamalarning zidligi hisoblanadi”.⁴⁴

Strukturalizm va semiotikada binar oppozitsiya (zid munosabat) alohida o‘rin va ahamiyatga ega. Bu aslida falsafaga tegishli tushuncha bo‘lib, uning asoslari Platon dialektikasi va Aristotelning formal mantiq nazariyasida o‘z ifodasini topgan.


F. de Sossyur o‘zining lingvistik nazariyasida zid munosabatni til tizimiga tatbiq etgan. Uning fikricha, binar oppozitsiya shunday bir vositaki, uning yordamida til birliklari qiymat yoki ma’noga ega bo‘ladi; har qanday birlik boshqa bir so‘z bilan o‘zaro munosabatda ayonlashadi.⁴⁵ Bu esa lisoniy vositaning bir guruhdan boshqasiga, ya’ni sintagmatik o‘lchovdan paradigmatic tizimga o‘tish hodisasidir.

Binar oppozitsiya atamasi garchi strukturalizm va semiotika namoyandalari, jumladan, Rolan Bart tomonidan ilmiy-nazariy ishlarda istifoda etilgan bo‘lsa-da, unga alohida e’tibor poststruktural bosqichda kuchaydi. Bu jihatdan fransuz faylasufi Jak Derrida tadqiqotlari ahamiyatlidir. U “Grammatologiya” nomli asarida dekonstruksiya nazariyasini bayon etgan. Bu ta’limotga ko‘ra, ritorika (matnning grammatik-uslubiy ifodasi) mantiq (tafakkur) bilan zid munosabatni hosil qiladi.

⁴⁴https://en.wikipedia.org/wiki/Binary_opposition.

⁴⁵ Деррида Ж.О. грамматологии. / Пер. с фр. и вст. ст. Н. Автономовой. – М.: Ad Marginem, 2000. / <https://opentextnn.ru/old/man/index.html?id=3849>.

“Dekonstuksiya yaxlit tizimning kelib chiqish sabablari hamda qanday ishlayotganini aniqlash maqsadida uni mexanik tarzda tarkibiy bo‘laklarga ajratish va tahlil qilish hisoblanadi. Matn misolida esa undagi mantiq va ritorika, mazmun bilan uning vositachi til yuzaga chiqaradigan talqini orasidagi ziddiyatdir”.⁴⁶ Bunday munosabat vositachi til orqali yuzaga chiqadi. Biz yuqorida bayon etilgan fikr-mulohazalarni aniqroq tasavvur hosil bo‘lishi uchun chizma orqali ko‘rsatib beramiz. Bu chizma o‘z strukturasi matn, vositachi til va adresant nuqtayi nazarlari hamda munosabatlarini gavdalantiradi:



Bunda:

1 – matn ifodasi, ya’ni lug‘aviy va grammatik vositalar orqali ifodalangan nutqiy birlik;

2 – vositachi til (adresat – matnni o‘quvchi shaxsning tafakkur jarayoni);

3 – adresant –muallifning matn tarkibiga singdirilgan yetakchi g‘oyasi.

Jak Derrida falsafada ko‘p asrlar davomida hukmron bo‘lib kelgan logotsentrizm⁴⁷ usulini inkor etib, uning o‘rniga dekonstruksiya vositasini taklif etgan. Dekonstruksiyaga eng yaqin tushuncha dixotomiyadir.⁴⁸ Shu sababli, ayrim ishlarda ular bir-birining o‘rnida qo‘llanishi mumkin. Aytish lozimki, dekonstruksiya va dixotomiya atamaları borliq, insoniyat hayoti va tafakkurida mavjud zid munosabat (binar oppozitsiya)ni ifodalash uchun xizmat qiladi.

“Muhabbat” qissasi tahlili davomida binar oppozitsiyaning mazkur matnda mavjud bo‘lgan shakllari aniqlanib, shu asosda mazkur usulning o‘ziga xos jihatlari ochib berildi. Ushbu faslda binar zidlikning qissa matnida mavjud bo‘lgan yetti turi haqida fikr yuritildi. Mazkur muammo bo‘yicha yangi izlanishlar badiiy adabiyot namunalarida juft qarama-qarshilikning boshqa shakl va ko‘rinishlari mavjudligini ko‘rsatishishi mumkin. Lekin biz ko‘rib chiqib tahlil etgan zid munosabatlarning o‘ziyoq matn strukturasi bunday juftliklarning katta badiiy-estetik ahamiyat va qiymatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Gegelning dialektika haqidagi ta’limotida o‘z ifodasini topgan nuqtayi nazar, ya’ni insoniyat jamiyati rivojida turlicha ziddiyatlarning ustuvor o‘rni borligi aytilgan. Bu fikrni badiiy matnga ham tatbiq etish mumkin. Chindan ham matn pafosi, drammatizmini yuzaga keltirishda binar oppozitsiya muhim rolga ega.

XULOSA

